

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

YAKUBOV G'ULOM
YEVIROPA ITTIFOQINING
KENGAYISHI

Mutaxassislik: 5A 150204 – Tarix yo'nalishlar va mamlakatlar mutaxassisligi

magistr akademik darajasini olish uchun

MAGISTRLIK DISSERTATSIYA

Ish ko'rildi va himoyaga ruxsat
berildi. "Jahon tarixi" kafedrası
mudiri _____ dots.
Xoshimova M.
"_____" _____ 2017 y.

Ilmiy rahbar:
_____ dots. Nuriddinov .

Samarqand – 2017

MUNDARIJA:

Kirish.

I BOB. BIRLASHGAN YEVIROPA G'OYASI. IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI DAVRDA YEVIROPADAGI INTEGRATSION JARAYONLAR

1.1. Birlashgan Yevropa g'oyasining shakllanishi. Yevropa hamjamiyatining tashkil etilishi.

1.2. Yevropa hamjamiyatidan Yevropa ittifoqi sari.

II BOB. YEVIROPA ITTIFOQI KENGAYIHSLAR DAVRIDA

2.1. Maastrix shartnomasi: Yevropadagi integratsiyon jarayonlar burilish pallasida

2.2. Yevropa Ittifoqida integratsiyaning chuqurlashishi va a'zo davlatlar sonining ortishi

III. BOB. YEVIROPA INTEGRATSIYASI: BUGUNGI HOLAT.

3.1. Integratsion jarayonlardagi muammolar.

3.2. O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi.

Xulosa

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati.

ILOVALAR

Kirish

Yevropa ittifoqi bugungi kunda dunyoning biror–bir joyida uchramaydigan va davlatlar o‘rtasidagi integratsion jarayonlarning haqiqiy namunasi bo‘lib turgan tashkilot, birlashma, uyushma va boshqa umumiyliklarga ega o‘ziga xos tashkilotdir. Shu bilan birga Yevropa ittifoqi tashkilot sifatida tan olinmaydi va uning bugungi darajasi boshqa mintaqa davlatlari uchun namuna bo‘lishi ham mumkin.

Boshqa hududlardagi davlatlar tomonidan Yevropa ittifoqiga o‘xshash tashkilotlar va birlashmalar tashkil etish uchun harakat qilishadi, ammo ularning mazmun va mohiyati aynan iqtisodiy masalalarni bu darajada hal eta olmaganligini ko‘rishamiz mumkin. Misol uchun Afrika davlatlarining o‘ziga xos birdamlik tashkiloti mavjud va uning faoliyati dunyoning boshqa mintaqalarida u yoqda tursin qit‘aning o‘zida ham uning o‘rnini sezish juda qiyin.. undan tashqari tashkilot iqtisodiy muammolarni hal etish bilan emas mintaqa davlatlari o‘rtasidagi siyosiy va harbiy masalalarni hal etish uchun vaqt va kuch sarflaydi.

Birlashgan Yevropaning tashkil eilishi g‘oyasi juda qadimdan shakllangan va uning tarafdorlari har doim Yevropaning barcha mamlakatlarida topilgan. Garchi bu masalaga davlat rahbarlari va hukumat darajasida kam xollarda e‘tibor berilgan bo‘lsada, ammo baribir ma‘lum paytlarda Yevropaning u yoki bu darajada birlashtirilganligini ko‘rish mumkin.

Misol uchun Qadimgi Rim imperiyasi, Franklar qirolligi va imperiyasi qadimda va o‘rta asrlar davrida Yevropaning katta qismini ma‘lum bir paytlarda birlashtirishga erishgan. Keyingi davrlarda Napoleon Bonapart va boshqa davlat arboblari ham Evropa davlatlarini harbiy yo‘l orqali birlashtirishga harakat qilib ko‘rishgan va buning uddasidan u yok bu darajada chiqishgan bo‘lsada, ammo bu birlashtirish vaqtincha va samarasiz bo‘lgan. Bugungi kundagi Yevropa ittifoqining tashkil etilishi, uning tarixiy taraqqiyoti va bugungi kunda dunyoda tutgan o‘rni, doimiy ravishda kengayib borishi va uning a‘zoligi uchun davlatlarning harakat qilishlarini, unga oid ma‘lumotlarni ko‘rib o‘tish mazkur mavzuning alohida e‘tibor qaratish lozim bo‘lgan jihatlariga kiradi.

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston mustaqillik yillarida dunyoning barcha mamlakatlari bilan yaqin va teng aloqalarni tartibga solish va yo‘lga qo‘yish uchun harakat qilib kelmoqda. Shunday hududlardan G‘arbiy va umuman Yevropa mintaqasida joylashgan mamlakatlardir. Yurtimizning mustaqillik yillarida Yevropa ittifoqi davlatlari bilan aloqalari yil sayin faollashib bormoqda.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining Qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasida (2010 yil 27 yanvar) «Mintaqamizda va butun dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab geosiyosiy sharoitda bizning zimmamizda mamlakatimizning xavfsizligi va barqarorligini ta‘minlash, shu muqaddas zaminimizda hukm surayotgan tinch-osoyishta hayotni saqlash kabi bir-biridan mas‘uliyatli va keng ko‘lamli bir qator vazifalar borki, yurtimizning, jondan aziz farzandlarimizning bugungi va ertangi kuni ana shu masalalarni qanchalik muvaffaqiyat bilan hal etishimizga bog‘liqdir» der ekan, mutlaqo haq edi.¹

Darhaqiqat, XX asrning so‘nggi o‘n yilligida va XXI asrning boshlarida jahon geosiyosiy maydonidagi o‘zgarishlarni o‘rganish va tahlil etish shu davrda endigina istiqloлга erishgan O‘zbekiston uchun mustaqil tashqi siyosatini yuritishda katta ahamiyatga ega edi. Jumladan, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzi ham ayni shu sohadagi bilimlar, ko‘nikmalar, tajribalarga bevosita bog‘liqligini unutmaslik lozim.

Tanlab olingan mavzuning dolzarbligi, avvalo, dunyodagi davlatlar o‘rtasida kechgan eng muvaffaqiyatli integratsiya jarayonlarini bosib o‘tgan xalqaro tashkilot - Yevropa ittifoqi, uning shakllanishi va rivojlanishini o‘rganish bevosita shu tashkilot bilan aloqalari kengayib borayotgan mamlakatimiz uchun katta ahamiyatga ega ekanligi bilan bog‘liq. Qolaversa, bu xalqaro tashkilotning shakllanishi tarixini o‘rganish boshqa mamlakatlar o‘rtasidagi integratsion jarayonlarni tahlil qilishga va tegishli xulosalar chiqarish imkonini beradi. Shu

¹ Каримов И. А. Жаҳон инқирозининг оқибатларини енгиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари. Т. 18. - Т.: 2010. 137-бет.

bilan birga Yevropaning ikkinchi jahon urushidan keyingi bosib o'tgan taraqqiyot yo'lini tahlil qilish imkonini tug'diradi.

Bundan tashqari, tanlab olingan mavzuning dolzarbligini uni ilmiy va amaliy tadqiq etish hamda tizimli o'rganishga doir xulosa, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga bo'lgan ehtiyoj bilan asoslash mumkin.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mustaqillik yillarida xalqaro tashkilotlarni ilmiy va amaliy jihatdan keng tahlil qilishga qaratilgan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, bu masalaga mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida katta e'tibor qaratilganki, ularda ilgari surilgan g'oyalar bevosita O'zbekistonning muhokama qilinayotgan xalqaro tashkilotga nisbatan munosabatini belgilaydi². Bu bevosita ushbu muammolarning dolzarbligidan kelib chiqadi. Garchi mavzuning yurtimiz tarix fanida o'rganilishi u qadar keng miqyosda amalga oshirilmagan bo'lsada, ammo keyingi yillarda shu kabi mavzularga e'tibor bir qadar kuchayganligini ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan birga mavzuni yoritish uchun internet ma'lumotlari va Rossiyada keyingi yillarda nashr qilingan tarixiy, ilmiy va ommabop asarlardan, ilmiy maqolalardan foydalanish nazarda tutilgan

Yevropa ittifoqidagi integratsion jarayonlarnig rivojlanishi va O'zbekiston Respublikasining bu tashkilot bilan aloqasi masalalari ko'pqirrali va dolzarb bo'lganligi uchun ham ko'pchilik xorij va vatandosh tadqiqotchilar e'tiborini tortmoqda, siyosatshunos, huquqshunos, tarixchi olimlarimiz tomonidan mavzuga doir bir qator tadqiqotlar nashr etildi. Jumladan, Rajabov Q. va boshqalar. Jahon tarixining muhim sanalari (Eng qadimgi davrlarda bugungi kungacha). –T.: «O'zbekiston», 2011, Vek XX: politika, lyudi, sudby. Avt.sost. SH.Ergashev, T.Bobomatov, N.Tursunov. –T.: «Sharq», 2007, Odilqoriev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik. –T.: O'zbekiston faylasuflari jamiyati, 2009, Jo'raev N. Fayzullaev T. Mustaqil O'zbekiston tarixi. O'zbekistonning yangi tarixi. 3-kitob. to'ldirilgan va qayta

²Каримов И.А. Тўла асарлар мажмуаси. 1-18 жилдлар.

nashr. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2009, O‘zbekiston jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo‘lida. –T.: «Akademiya», 2005, Saidkasimova B. Magnetizm evropeyskoy integratsii // Huquq-Pravo-Law. - 2004. - №2. 65-bet, Mirzaev T. «Yevropa - Kavkaz - Osiyo transport yo‘lagi, Traceca», O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3-jild. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, -T.: 2002, 412-413-betlar, Mirzaxolov A. «Yevro (Euro)», O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3-jild. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, -T.: 2002, 405-bet, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2-jild. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, -T.: 2001, 213-214-betlar, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 10-jild. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, -T.: 2005, 373-bet, Kamolova Z. O‘zbekiston – Yevropa Ittifoqi hamkorligi. «Jamiyat va boshqaruv» jurnali. 2010 yil, 4-son, 91-bet, <http://mfa.uz>, Zabolotnyy V.M. Noveyshaya istoriya stran Evropy i Severnoy Ameriki: Konets XX – nachalo XXI veka. Uchebnoe posobie dlya studentov. –M.: Izdatelstvo AST, 2004, Arax M. vroeyskiy soyuz: videnie politicheskogo ob’edineniya. M., 1998, Borxardt K. D. Azbuka prava Yevropeyskogo soobshchestva. M., 1994, Buzgalin A. Vglyadyvayas v XXI vek: Yevropeyskiy Soyuz i SNG. M., 1998, Gluxarev L. I. Obshchestvennye protsessy i gumanitarnaya vropa. M., 1995, Jurkin V. V. Yevropeyskiy Soyuz: Vneshnyaya politika, bezopasnost, oborona. M., 1998, Zapadnaya Yevropa na poroge tretego tysyacheletiya: bezopasnost, politika, ekonomika. M., 1995, Yevropa na poroge XXI veka: renessans ili upadok? M.,1998, Yevropeyskiy soyuz: novyy etap integratsii. M., 1996, Yevropa i Rossiya: problemy yujnogo napravleniya. M.,1999, Yevropeyskaya integratsiya, Bolshaya Gumanisticheskaya Yevropa i kultura. M., 1998, Evropeyskiy soyuz: Putevoditel. M., 1998, Evropeyskaya komissiya: Programma Tasis. Bryussel, 1998, Istoriya evropeyskoy integratsii (1945—1994). M., 1995, Kapustin A. YA. Evropeyskiy soyuz: integratsiya i pravo. M., 2000, Kerni R. Dialogi o Evrope. M., 2002, Ot Xelsinki do Budapeshta. Istoriya SBSE/OBSE v dok. 1973—1994. V 3 t. M., 1997, Ponomarev M.V.,

Smirnova S. YU. Novaya i noveyshaya istoriya stran Evropy i Ameriki. Prakticheskoe posobie. V 3 ch. M., 2000, Razvitie integratsionnykh protsessov v Evrope i Rossii. M., 1996, Rossiya i osnovnyye instituty bezopasnosti v Evrope: vstupaya v XXI vek M., 2000, Sindjanski D. Federativnoe budущеe Evropy. Ot Evropeyskogo Soobshchestva do Evropeyskogo soyuza. M., 1998, Starodubov V. P. Superderjavy XXI veka: Strategicheskoe protivoborstvo. M., 2001 va boshqalar ushbu mavzu doir muammolarni tadqiq etganlar. Shu munosabat bilan yuqorida keltirib o'tilgan asarlardan mavzuni yoritishda keng qo'llaniladi.

Mamlakatimizdagi markaziy nashrlar, ijtimoiy-siyosiy jurnallarda va gazetalarda ham bir qator ilmiy, publitsistik maqolalar e'lon qilingan bo'lib, ularda Yevropa Ittifoqining rivojlanishi, jumladan O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi hamkorligi to'g'risida so'z boradi. Amalga oshirilgan tadqiqot ishlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, mavzu bo'yicha salmoqli ishlar chop etilganligi muhim yutug'imizdir.

Biz o'z tadqiqotimizda yuqorida keltirilgan tadqiqotlarning muhimligi va dolzarbligini e'tirof etgan holda, Evropa Ittifoqining ikkinchi jahon urushidan keyingi ilk integratsion jarayonlaridan to bugungi kungacha bo'lgan rivojlanish tarixini qamrab olishga harakat qildik va xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi nuqtai nazardan o'rganishni asosiy maqsad qilib oldik.

Tadqiqot maqsadi. Yevropa ittifoqining shakllanishi, rivojlanishi va uning kengayishini, qo'shimcha ravishda esa Yevropa ittifoqi va O'zbekiston aloqalarini ham yoritishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda Yevropadagi integratsion jarayonlar va ularning natijalarini yoritib berish;

- Ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa uyushmasining tashkil etilishi, uning Evropa hamjamiyatlarini barpo etishdagi o'рни va Yevropa ittifoqining tashkil etilishidagi dastlabki ishlarni yoritib berish;

- Yevropa hamjamiyatlaridan yagona Yevropa hamjamiyatiga sari yo'lning murakkabligi, mavjud to'siqlarni ko'rsatib berish;

- Yevropa Ittifoqining yangi asrga qanday sifat o'zgarishlari bilan o'tganligi, bugungi kundagi muammolar va uning kelajagiga oid boshqa ma'lumotlarni yoritib berish;

- Yevropa Ittifoqiningning shakllanishida Maastrix shartnomasining o'рни, uning imzolanishidan ko'zlangan maqsadlarni yoritib berish;

- Yevropa Ittifoqida integratsiyaning chuqurlashishi va a'zo davlatlar sonining ortishi hamda bu jarayoning Rossiya va boshqa davlatlar tomonidan baholanishi;

- O'zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan hamkorligi masalalari va echimlarini tadqiq etishdan iborat. Shu bilan birga mavzuga doir umumiy xulosa va nazariy-uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish rejalashtirilgan.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Ikkinchi jahon urushidan, bugungi kunga qadar bo'lgan Yevropadagi integratsion jarayonlar va ittifoqning kengayishi tadqiqotning o'rganish ob'ektidir.

Tadqiqotning predmeti Yevropa Ittifoqining shakllanish bosqichlari, Yevropa Ittifoqi va uning O'zbekiston bilan hamkorligini o'rganish, ilmiy tahlil qilishdan iborat.

Mavzuning ilmiy yangiligi va ahamiyati. XX asrning so'nggi o'n yilligida va XXI asrning birinchi o'n yilliklarida jahon geosiyosiy maydonidagi o'zgarishlarni o'rganish va tahlil etish shu davrda endigina istiqloлга erishgan O'zbekiston uchun mustaqil tashqi siyosatini yuritishda katta ahamiyatga ega. Jumladan, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzi ham ayni shu sohadagi bilimlar, ko'nikmalar, tajribalarga bevosita bog'liqligini unutmaslik lozim.

Yevropa Ittifoqi, uning shakllanishi va rivojlanishini hamda kengayib borishini o'rganish bevosita shu tashkilot bilan aloqalari kengayib borayotgan mamlakatimiz uchun katta ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, bu xalqaro tashkilotning shakllanishi tarixini o'rganish boshqa mamlakatlar o'rtasidagi integratsion jarayonlarni tahlil qilishga va tegishli xulosalar chiqarish imkonini beradi. Shu bilan birga Yevropaning ikkinchi jahon urushidan keyingi bosib o'tgan taraqqiyot yo'lini tahlil qilish imkonini tug'diradi.

Tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: Mazkur mavzuning yoritilishi bilan O'zbekistonning Yevropa ittifoqi bilan munosabatlariga yana bir bor e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga Yevropa ittifoqining kengayishi masalasini yoritib berish orqali bugungi kunda Yevropa va Rossiya o'rtasida yuz berayotgan munozaralar, ayrim muammolarga va ularning xolati, sabablari va boshqalarga ham etibor qaratiladi. Mavzuning yoritib berilishi natijasida to'plangan ma'lumotlar faqatgina ilmiy bo'lib qolmasdan bu ma'lumotlarni ilmiy-ommabop ma'lumotlar sifatida ko'rsatib, ulardan mavzuga qiziqqan barcha kishilar, ijtimoiy va gumanitar yo'nalishdagi barcha Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining talabalari ham foydalanishlari mumkin.

I Bob. Birlagan Yevropa g'oyasi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda Yevropadagi integratsion jarayonlar

1.1. Birlashgan Yevropa g'oyasining shakllanishi. Ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa birlashmasining tashkil etilishi va uning Yevropa hamjamiyatini tashkil etishdagi o'rni.

Yagona va birlashgan Yevropani shakllantirish va tashkil etish g'oyasi aslida biz ko'rib, bilib turgan XX asrda emas, balki, anchagina olis o'tmishga borib taqaladi. XIII-XV asrlarda fransuz qiroli prokurori P.dyu Buy va Chexiya qiroli Y.Podebrad birinchi marta butun Yevropani birlashtirish va uning yagona hukmdorning boshqaruvi ostiga o'tishini ta'kidlab o'tishgandi. Shu bilan birga Yevropaning birlashtirilishi borasida bir qancha kishilar o'zlarining loyihalarini ham keltirib o'tishgan. Ular orasida inglizlardan U.Penn va J.Beller, fransuzlardan Sh.de Sen-Per va V.Gyugo, buyuk nemis faylasufi I.Kant va boshqa ko'plab kishilar mavjud edi. XX asrda Yevropa mamlakatlari o'rtasida o'zaro urushlarning kuchayib borishi bilan birga qit'a mamlakatlarining birlashtirilishi borasida ham fikrlar shu darajada ko'payib bordi. Ular orasida avstriyalik graf R.Kudensexov-Kalergi (uning «Pan-Evropa» nomli asari mavjud) Fransiya tashqi ishlar vaziri A.Brianlar tomonidan asosiy fikrlar bildirilib o'tdi³.

Ikkinchi jahon urushi va antigitler koalitsiyasining shakllanishi natijasida Yevropa amalda 2 lagerga bo'linib qoldi. Urushdan keyingi yillarda G'arbiy Yevropa mamlakatlari AQSH va Janubiy-Sharqiy Yevropa mamlakatlari sobiq SSSRning ta'sir doiralariga tushib qolgan edi. Shu bilan birga Yevropaning bir guruh davlatlari NATO va boshqa qismi Varshava shartnomasi tashkilotlariga a'zo bo'lishgan edi. Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki guruh mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy aloqalar sust yo'lga qo'yilgandi. Bularning barchasi Yevropa mamlakatlarini bir g'oya va maqsad yo'lida birlashish uchun harakat qilishlariga

³ Антонович И. И. Современный капитализм — социодинамика власти. М., 1990.

zamin hozirlagan edi. Buyuk Britaniyaning sobiq bosh vaziri U.Churchill o'zining Syurixda qilgan chiqishida Yevropa Qo'shma Shtatlarini tuzish g'oyasini ilgari surgan bo'lsa, fransuz davlat arboblari Jan Mane, Rober Shuman va boshqalar ko'pchilik uchun ma'qul bo'lgan takliflarni o'rtaga tashlashgan. Ular birinchi galda Fransiya va GFR o'rtasidagi dushmanlikka chek qo'yish kerakligini ta'kidlashgandi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng aniqrog'i, 1946 yil 16 sentyabrda Syurix universitetida U.Churchill so'zlagan nutqda Amerika Qo'shma shtatlariga o'xshagan «Yevropa qo'shma shtatlari»ni barpo etish lozimligi e'lon qilinganidan keyin yana jonlandi. Natijada 1949 yilda Yevropa kengashi tashkiloti tuzildi va u bugungi kunga qadar faoliyat yuritmoqda.⁴ Yevropa kengashi o'z faoliyatini Yevropa davlatlarida inson huquqlarini ta'minlash masalalariga qaratib, BMTning hududiy ekvivalenti sifatida mavjud bo'lib kelmoqda.

Yevropa kengashi (YK) - Yevropa davlatlarining har tomonlama hamkorlik qilishiga ko'maklashuvchi xalqaro tashkilot bo'lib, uning maqsadi: a'zo mamlakatlar o'rtasida yaqin aloqalarni ta'minlash; Yevropaning demokratik va xavfsiz makonga aylanishiga, plyuralistik demokratiyani va inson huquqlarini mustahkamlashga, Yevropacha o'zini o'zi anglash va madaniy bir xillikni rivojlantirishga yordam berish. Yevropadagi 40 dan ortiq davlat a'zo hisoblanadi.⁵ YKga a'zo bo'lib kirishni istagan davlat muayyan talablarga javob berishi kerak: uning davlat muassasalari va huquqiy tuzilishi demokratiyaning asosiy prinsiplariga, inson hukuklariga rioya etilishiga muvofiq bo'lishi lozim, xalq vakillari esa erkin, teng va umumiy saylovlar yo'li bilan saylanishi kerak. YKga qabul qilishda, jumladan, fikrni ifodalash erkinligi bo'lishi, milliy ozchiliklar himoyalaniishi, xalqaro huquq me'yorlariga rioya etilishi mezon hisoblanadi. YK a'zosi inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasining qatnashchisi bo'lishi

⁴ Ражабов Қ. ва бошқалар. Жаҳон тарихининг муҳим саналари (Энг қадимги даврларда бугунги кунгача). – Т.: «Ўзбекистон», 2011, 477-бет.

⁵ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 410-бет.

shart.

YKning quyidagi organlari bor:

1. Vazirlar qo‘mitasi.
2. Parlament assambleyasi.
3. Tarmoq vazirlari kengashi.
4. Kotibiyat.⁶

Vazirlar qo‘mitasi YKning oliy organidir. U a‘zo mamlakatlar tashqi ishlar vazirlaridan tashkil topadi va YKning ish dasturi yuzasidan qarorlar qabul qiladi, turli hukumatlararo ixtisoslashgan qo‘mitalar, tarmoq vazirlar kengashlari takliflari bo‘yicha qarorlar chiqaradi, YK byudjetini qabul qiladi va inson ququqlari bo‘yicha Yevropa komissiyasi a‘zolarini tayinlaydi. Odatda, yiliga 2 marta vazirlar darajasida yig‘ilish o‘tkazadi. Parlament assambleyasi milliy parlamentlar deputatlaridan tashkil topgan deputatlar va ularning o‘rinbosarlaridan iborat. Assambleya kun tartibida turgan masalalarni muhokama qiladi, tavsiyalar ishlab chiqadi, konferensiya, kollokvium va ochiq parlament majlislarini tashkil qiladi. Bosh kotibni va uning o‘rinbosarini, inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi sudyalarini saylaydi. Kotibiyatni 5 yil muddatga saylanadigan Bosh kotib boshqaradi. YK organlari Strastbur shahrida (Fransiya) joylashgan⁷.

Yevropa integratsiyasi va Yevropa hamjamiyatlari (Yevropa iqtisodiy hamjamiyati, atom energiyasi bo‘yicha Yevropa hamjamiyati) nomini olgan davlatlararo tuzilmalarni shakllanishi jarayonini ko‘mir va po‘lat bo‘yicha Yevropa uyushmasi (European Coal and Steel community) - G‘arbiy Yevropa mamlakatlarinng davlat monopolistik tashkilotining tuzilishi boshlab berdi. Yevropadagi integratsion jarayonlar to‘g‘risida Prezidentimiz I.A.Karimov «...Yevropa Ittifoqida integratsiya jarayonlariga yondashuvlar integratsiyalashayotgan davlatning batamom suverenligi, ixtiyoriylik va ularning huquqlarini hurmat qilish tamoyillariga asoslanadi...

⁶ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 411-бет.

⁷ Арах М. Европейский союз: видение политического объединения. М., 1998.

Birinchidan, eng muhimi shundaki, Yevropa Ittifoqini shakllantirish bir necha o'n yilliklarni o'z ichiga oladigan uzoq tarixga ega, Maastrixt bitimlari esa - davlatlar, ularning rahbarlari bosib o'tgan katta yo'lning natijasidir...

Ikkinchidan, Yevropa Ittifoqiga barqaror, mustahkam demokratik ijtimoiy davlat tuzilmalariga ega bo'lgan, puxta bozor va huquqiy qonunchilik normalarini, ularni ro'yobga chiqarish mexanizmlari va infrastrukturasini shakllantirgan mamlakatlar birlashgan....

Uchinchidan, demokratik tartiblar va qadriyatlar bu mamlakatlar aholisi mutlaq ko'pchiligining ijtimoiy ongida mustahkam o'rnashib qolgan...

To'rtinchidan, Yevropa Ittifoqidagi mamlakatlarning ko'pchiligi taxminan teng, ancha yuqori iqtisodiy imkoniyatlarga ega. O'zining rivojlanishi jihatidan yaqqol afzalliklarga ega davlatlar yo'q...»⁸ deb baho bergan.

Yevropa kumir va po'lat birlashmasi — Yevropa hamjamiyatini tashkil etgan mamlakatlarning kumir va po'lat umumiy bozorini boshqargan birinchi rahbar organ. 1950 yilda Fransiya tashqi ishlar vaziri R. Shuman taklif etgan rejaga asosan 1951 yilda ko'mir, temir rudasi qazib olish, po'lat ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan. 1950 yil 9 mayda so'zlagan nutqida R.Shuman birinchi bo'lib Yevropa kumir va po'lat birlashmasi tuzish g'oyasini ilgari suradi.⁹ Shu sana bugungi kunga qadar Yevropa Ittifoqining tug'ilgan kuni sifatida nishonlanadi(1985 yilda Yevropa Iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo davlatlar rahbarlari tomonidan shu haqda qaror qabul qilingan). Dastlab birlashmaga Yevropa hamjamiyatining olti mamlakati (Fransiya, Germaniya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg) kirgan, keyinchalik Yevropa Ittifoqining boshqa a'zolari ham qo'shildi. G'arbiy Yevropada qazib olinadigan deyarli barcha toshko'mirni, cho'yan va po'lat eritishning 90%ni, temir rudasi qazib olishning 90%ni nazorat qiladi.¹⁰

⁸ Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. - Т.: 1998. 52-бет.

⁹ Батафсил қаранг: Век XX: политика, люди, судьбы. Авт.сост. Ш.Эргашев, Т.Бобоматов, Н.Турсунов. —Т.: «Шарк», 2007

¹⁰ Қаранг: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 411-бет.

Bu tashkilotni tuzishdan maqsad:

- Gʻarbiy Yevropani siyosiy va iqtisodiy qayta tiklash;
- Birlashmaga kirgan davlatlarning iqtisodiyotini rivojlantirishga yoʻl ochish;
- Mintaqada eskicha qarama-qarshiliklarning qayta uygʻonishga yoʻl qoʻymaslik;
- Germaniya (yoki uning bir qismi)ni Gʻarbiy blokka integratsiyalash; sobiq SSSR ning siyosiy va iqtisodiy taʼsiriga aks taʼsir koʻrsatishdan iborat edi.

Koʻmir va poʻlat boʻyicha Yevropa uyushmasi 1951 yil 10 aprelda Parijda Belgiya, Italiya Lyuksemburg, Niderlandiya, Fransiya, GFR tomonidan 50 yilga moʻljallab tuzilgan hamda 1952 yil 25 iyuldan kuchga kirgan shartnoma asosida yuzaga kelgan edi. 1973 yil 1 yanvardan bu tashkilotga Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya, 1981 yil 1 yanvardan esa Gretsiya kirdi. 1975 yildan boshlab tashkilot Gʻarbiy Yevropada poʻlat quyishning 90%, koʻmir qazib olishning 100% va temir rudasi qazib olishning 50% ni nazorat qilar edi. 2002 yil 23 iyunda shartnoma muddati tugaganligi munosabati bilan faoliyati tugatilgan boʻlsada Yevropa integratsiyasida katta ahamiyatga ega boʻladi. Buyuk Britaniya milliy suverenitet nuqtai nazaridan bu uyushmaga kirmadi¹¹.

Garchi, urushdan keyingi Yevropa integratsiyasiga turli davlatlarning iqtisodiy, siyosiy jihatdan tengsizligi, Germaniyaga nisbatan ishonchsizlik, shuningdek birlashgan Yevropa etakchilik uchun ingliz-fransuz raqobati halaqit bergan boʻlsada, jarayon toʻhtab qolmadi.

Gʻarbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasini «Marshal rejasi» ishtirokchilari tomonidan 1948 yilda tuzilgan Yevropa iqtisodiy hamkorligi tashkiloti boshlab berdi. Bu tashkilot muvofiqlashtiruvchilik vazifasini bajardi¹².

1949 yilda Yevropada birinchi siyosiy tashkilot - Yevropa kengashi tuzilgan boʻlsada, uning qarorlari tavsiya xarakteriga ega edi xolos, uning keyingi faoliyati «sovuq urush» taʼsirida sustlashib qoldi.

¹¹ Журкин В. В. Европейский Союз: Внешняя политика, безопасность, оборона. М., 1998.

¹² Капустин А. Я. Европейский союз: интеграция и право. М., 2000.

1950 yilda Yevropa siyosiy hamjamiyati bilan bir qatorda Yevropa harbiy birlashma – Yevropa mudofaa hamjamiyatini tuzish rejasi olg‘a surildi¹³.

Belgiya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Fransiya va GFR tashqi ishlar vazirligi tomonidan Parijda imzolangan Yevropa mudofaa hamjamiyatini tuzish to‘g‘risidagi shartnoma 1954 yil avgustda fransuz parlamenti tomonidan inkor etildi.

G‘arbiy Yevropaning iqtisodiyot sohasidagi integratsiyalashuvi ko‘proq muvaffaqiyatga ega bo‘ldi. Rejalashtirish masalalari bo‘yicha bosh komissar, fransuz iqtisodchisi Jan Monne bu sohadagi integratsiyaning g‘oyaviy otasiga aylandi. U tayyorlagan ma‘ruza «Shuman deklaratsiyasi» asosini tashkil etdi. 1950 yil 9 mayda Fransiya tashqi ishlar vaziri Robert Shuman deklaratsiya bilan chiqib, unda Fransiyaning yangi Yevropani barpo etish yo‘lida birinchi qadamni tashlashga tayyorligini e‘lon qildi va Germaniyaga shu ishda ishtirok etish taklifini bildirdi. U: «Natijada, yangi, birlashgan va kuchli Yevropa yuzaga keladi, unda aholining hayot darajasi o‘sadi, chunki, ishlab chiqarish birlashadi, bozor kengayadi bu esa narhlarning pasayishiga olib keladi»¹⁴, deb ta’kidladi. R. Shuman Fransiya va Germaniya o‘rtasidagi uzoq muddatli raqobatni tugatish, ko‘mir va po‘lat ishlab chiqarish bo‘yicha oliy rahbarlik organi boshqaruvi ostidagi fransuz-nemis hamkorligini tuzish; iqtisodiy hamjamiyat tuzishda tayyorlanish; a‘zo davlatlar uchun majburiy bo‘lgan rahbarlik organlari tuzishni hal etishga chorladi.

Natijada, bo‘lib o‘tgan hukumatlararo muzokaralar va munozaralardan so‘ng ko‘mir va po‘lat bo‘yicha Yevropa uyushmasini tashkil etish haqidagi shartnoma tayyorlandi.

Shartnomaga ko‘ra, 1952-1957 yillarda ko‘mir, temir rudasi, temir xom ashyosi, cho‘yan va maxsus po‘latning ishtirokchi davlatlar o‘rtasidagi umumiy bozori shakllandi, uyushmaga a‘zo davlatlar o‘rtasida ko‘mir qazib olish va

¹³ Заболотный В.М. Новейшая история стран Европы и Северной Америки: Конец XX – начало XXI века. Учебное пособие для студентов. –М.: Издательство АСТ, 2004.

¹⁴ Век XX: политика, люди, судьбы. Авт.сост. Ш.Эргашев, Т.Бобоматов, Н.Турсунов. –Т.: «Шарк», 2007, 322-бет.

metallurgiya sanoati mahsulotlariga bojxona soliqlari hamda shu mahsulotlar bilan savdo hajmini cheklashlar bekor qilindi, shuningdek metallurgiya sanoati mahsulotlari, temir hom ashyosi, ko'mir va rudani tashishga yagona transport tariflari kiritildi.

1955 yilga kelib a'zo davlatlarda yiliga ko'mir qazib olish 250 mln. tonnaga, po'lat quyish esa 60 mln. tonnaga etdi¹⁵.

Ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa uyushmasi doirasida birinchi marotaba xalqaro hayotga a'zo davlatlarning o'z suverenitetlarini qisman chegaralab bo'lsada, davlatlararo darajada hamkorlik elementlarini kiritish kuzatildi. Uyushmaning asosiy organlari:

1. Oliy rahbarlik organi a'zo davlatlar vakillaridan tashkil topadi lekin ular o'z hukumatlaridan mustaqil faoliyat olib borib, bajarilishi majburiy bo'lgan ishtirokchi davlatlarning umumiy manfaatlaridan kelib chiqadigan qarorlarni qabul qilish vakolatini oldi. Rahbarlik organlari a'zolari uyushmaga a'zo davlatlar tavsiyasi va o'zlarining roziligi bilan tayinlangan. Ularning o'z hukumatlari ko'rsatmalariga bo'ysunmasligi sharti ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa uyushmasi rahbarlik organlari faoliyatidagi milliy darajadan yuqori turuvchi boshqaruvni ta'minladi.

2. Vazirlar kengashi tegishli davlatlar hukumatlari a'zolaridan tashkil topgan.

Ushbu ikki organ uyushma doirasidagi barcha qarorlarni qabul qilgan. Oliy rahbarlik organi bilan bir qatorda vazirlar kengashining tuzilishi milliy manfaatlar va uyushma doirasidagi umumiy manfaatlar o'rtasidagi mutanosiblikni taminlagan.

1965 yil 8 aprel Bryusselda imzolangan va 1967 yil 1 iyuldan kuchga kirgan qo'shilib ketish to'g'risidagi shartnomaga ko'ra ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa uyushmasi va oliy rahbarlik organi, Vazirlar kengashi, shuningdek, Yevroatom kengashi hamda komissiyasi o'rnini Yevropa iqtisodiy hamjamiyati kengashi va

¹⁵ Заболотный В.М. Новейшая история стран Европы и Северной Америки: Конец XX – начало XXI века. Учебное пособие для студентов. –М.: Издательство АСТ, 2004.

komissiyasi bosdi. Ba'zi olimlar tomonidan ushbu shartnoma zamonaviy Yevropa ittifoqini amalda vujudga kelishi sifatida izohlanadi¹⁶.

Ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa uyushmasiga 2002 yil 23 iyunda shartnoma muddatini tugashi munosabati bilan yakun yasaldi. Yevropa hamjamiyatlarini yuqori rivojlanish sur'atlari bu tashkilotning ahamiyatini yo'qqa chiqardi. Shu kuni Bryusselda uyushma bayrog'i tantanali ravishda tushirildi.

1957 yilda Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Fransiya, Italiya va GFR iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish maqsadida Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini tuzdi. YIH avvalambor 6 ishtirokchi davlat o'rtasidagi bojxona ittifoqi sifatida tashkil etilib, aholi hukumatlari va maxsulotlarining erkin ko'chishini taminlashga qaratilgan edi¹⁷. Yvroatom tashkiloti esa shu tashkilotlarning tinchlikka yo'naltirilgan yadro resurslarini birlashtirishga jur'at qilishi lozim edi¹⁸.

Shu uch Yevropa hamjamiyatlaridan eng muhimi Yevropa iqtisodiy hamjamiyati bo'lib, keyinroq (1990 yillar) u Yevropa hamjamiyati deb atala boshladi. YIH ga 1957 yilgi Rim shartnomasi asosida tuzilgan bo'lib, u 1958 yil 1 yanvardan kuchga kirdi. 1959 yilda YIH a'zolari tomonidan Yevropa parlamenti tashkil etilib, u dastlab vakillik, maslaxat keyinchalik qonun qabul qiluvchi organ bo'lib qoldi. Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YIH) — mintaqaviy integratsiya tashkilotlaridan biri sifatida 1957 yilda Rim shartnomasiga ko'ra tuzilgan, ba'zida «Umumiy bozor» deb ham atalgan. Dastlab Yevropadagi 6 mamlakat (Fransiya, Germaniya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg) tashkilot a'zosi bo'lgan, keyin Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya (1973 yildan), Gretsiya (1981 yildan), Ispaniya, Portugaliya (1986 yildan) qo'shilgan. YIH qit'ada — iqtisodiy taraqqiyot

¹⁶ Ландрам Д. Тринадцать мужчин, которые изменили мир. Ростов-на-Дону, 1997.

¹⁷ От Хельсинки до Будапешта. История СБСЕ/ОБСЕ в док. 1973—1994. В 3 т. М., 1997.

¹⁸ Пономарев М.В., Смирнова С. Ю. Новая и новейшая история стран Европы и Америки. Практическое пособие. В 3 ч. М., 2000

darajasini ko'tarish yo'li bilan yagona iqtisodiy makonni vujudga keltirishga xizmat qildi. 1993 yili Yevropa Ittifoqiga tarkibiy qism bo'lib kirdi.¹⁹

Bu, Yevropa hamjamiyatlarining rivojlanishi va bugungi kundagi Yevropa ittifoqiga aylanishi bir vaqtning o'zida tizimli evolyusiya hamda institutsional transformatsiya yo'li bilan davlatlarning yanada jipsroq blokka, ko'proq boshqaruv vazifalarini davlatlararo darajasiga o'tkazish «Yevrointegratsiya yoki davlatlar ittifoqining chuqurlashuvi jarayoni» orqali sodir bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Yevropa hamjamiyatlari sonini 6 tadan 27 taga orttirib bordi.

1960 yil yanvarda Buyuk Britaniya va boshqa bir qator YIHga kirmagan davlatlar, «Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi» muqobil tashkilotni shakllantirdi. Biroq, Buyuk Britaniya tez orada bu tashkilotga nisbatan YIH omilkor birlashma ekanligini anglab etdi va unga qo'shilish to'g'risidagi qarorni qabul qildi. Uning ortidan iqtisodiyoti Buyuk Britaniya bilan savdoga bog'liq bo'lgan Irlandiya, Daniya va Norvegiya ham shunday qaror qabul qildi²⁰.

¹⁹ Қаранг: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 412-бет.

²⁰ Заболотный В.М. Новейшая история стран Европы и Северной Америки: Конец XX – начало XXI века. Учебное пособие для студентов. –М.: Издательство АСТ, 2004.

1.2. Yevropa hamjamiyatidan Yevropa ittifoqining tashkil etilishi.

Yevropada integratsiyaning rivojlanishi va avj olishi natijasida Yevropa mamlakatlari iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan o‘zaro hamkorlik aloqalariga alohida e‘tibor qaray boshlashadi. Ko‘mir va po‘lat sohalarida amalga oshirilgan hamkorlikning natija bera boshlaganligi, unga davlatlar iqtisodiy rivojida mazkur ijobiy natajalar boshqa davlatlarda ham kelajakka teran ko‘z bilan qarash uchun imkoniyat yaratib beradi.

Ko‘mir va po‘lar birlashmasining samarasi o‘laroq, yangi imkoniyatlarni ishga solish va shu orqali ikkinchi jahon urushi natijasida mavqei va ta’siri tushib ketgan Yevropa davlatlarining mavqeini yanada ko‘tarishi uchun harakatlar taboro faollasha boshladi.

YIH kengaytirishga birinchi harakat 1961-1963 yillarda amalga oshirildi. Lekin bu urinish Fransiya prizdenti de Gollning YIH ga yangi a‘zolari olish to‘g‘risidagi qarorga veto qo‘yilishi natijasida muvafaqiyatsizlikka uchradi. Shunday xolat 1966-67 yillardagi muzokaralarda ham takrorlandi²¹.

1967 yilda uchta Yevropa hamjamiyatlari yagona Yevropa hamjamiyatiga birlashdi.

Yevropa hamjamiyatini kengaytirish masalasi general Sharl de Gollning o‘rniga 1969 yilda Jorj Pampiduning kelishi natijasida siljidi. Buyuk Britaniya bir necha yillik muzokaralar va o‘z qonunchiligini muvofiqlashtirish jarayonidan

²¹ Заболотный В.М. Новейшая история стран Европы и Северной Америки: Конец XX – начало XXI века. Учебное пособие для студентов. –М.: Издательство АСТ, 2004.

so'ng, 1973 yil 1 yanvardan YIHga kirdi. 1972 yilda Irlandiya, Daniya va Norvegiyada YIHga qo'shilish masalasida referendumlar bo'lib o'tdi. Irlandiya (83,1 %) va Daniya (63,3 %) aholisi YIH ga kirishni qo'llab quvvatladi, lekin Norvegiyada bu tashabbus ko'pchilik tamonidan (45%) qo'llab quvvatlanmadi²². Daniyada ham aholi bu tashkilotni hukumatning yagona valyuta evroga o'tmaslik to'g'risidagi va'dasidan so'ng qo'llab quvvatladi²³.

Shu bois hozirga qadar Daniyada o'z pul birligi Krona muomalasi saqlanib qolgan. 1973 yilda Isroilga ham YIH ga qo'shilish taklifi tushdi. Lekin Isroildagi urush harakatlari tufayli muzokaralar to'xtab qoldi. 1975 yilda Isroil hamkorlik to'g'risidagi shartnomani imzoladi.

Gretsiya YIHga qo'shilish istagini 1975 yil iyunida bildirdi va 1981 yil 1 yanvarda hamjamiyat a'zosiga aylandi²⁴.

1979 yilda Yevropa parlamentiga birinchi to'g'ridan-to'g'ri saylovlar bo'lib o'tdi. Yevropa parlamenti - Yevropa Ittifoqi muassasalaridan biri. Uni Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar fuqarolari to'g'ridan-to'g'ri saylovlar orqali 5 yil muddatga saylaydi. Bunda davlatlarning aholi soni va Ittifoq doirasidagi ulushi hisobga olinadi (masalan, Germaniya 99 mandatga, Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya — 87 tadan, Ispaniya — 64 va hokazo mandatga ega). Uning har oyda bo'ladigan sessiyalari Strasbur (Fransiya)da, favqulodda majlislari — Bryussel (Belgiya)da o'tadi. Bu shaharlarda Yevropa parlamenti qo'mitalari ishlaydi, kotibiyati — Lyuksemburg shahrida faoliyat ko'rsatadi.²⁵

1985 yilda Grenlandiya ichki o'zini-o'zi boshqarish huquqini oldi va o'tkazilgan referendumdan so'ng YHdan chiqib ketdi.

²² Западная Европа на пороге третьего тысячелетия: безопасность, политика, экономика. М., 1995.

²³ Заболотный В.М. Новейшая история стран Европы и Северной Америки: Конец XX – начало XXI века. Учебное пособие для студентов. –М.: Издательство АСТ, 2004.

²⁴ История европейской интеграции (1945—1994). М., 1995.

²⁵ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 411-бет.

Portugaliya va Ispaniya 1977 yilda YIH ga qo'shilishga ariza berdi va 1986 yil 1 yanvarda a'zolikka qabul qilindi.²⁶ 1986 yil fevralda Lyuksemburgda Yagona Yevropa Akti imzolandi.

XX asrning 60-70 yillarida G'arbiy Yevropa integratsiyasi jarayoni davom etdi va rivojlandi.

G'arbiy Yevropadagi iqtisodiy inqiroz, xalqaro Brettonvud tizimining inqirozi G'arbiy Yevropa integratsiyasi jarayonini sekinlatib qo'ydi, lekin to'xtatib qo'ygani yo'q. Xalqaro Bretton-Vuds bitimi - 1944 yil 1—29 iyulda 44 mamlakat ishtirokida Bretton-Vuds (AQSH)da o'tkazilgan valyuta-moliya konferensiyasida imzolangan bitim. Xalqaro valyuta fondi (XVF) va Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankini tuzish loyihalari to'g'risidagi bu konferensiyada Xalqaro valyuta fondi va Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ustavlarining tarkibiy qismi bo'lgan «yakunlovchi hujjat» imzolandi. Unga kura, Xalqaro valyuta fondi a'zolari bo'lgan mamlakatlar o'z valyutalari kursini AQSH dollari yoki oltinda belgilashga o'tdilar. Bu bitim asosida shakllangan Bretton-Vuds valyuta tizimi 70 yillar boshiga qadar amalda bo'ldi. 1971 yildan G'arbiy Germaniya markasi va Gollandiya guldeni kurelarining erkin belgilanishi hamda AQSH dollarini rasmiy kurs buyicha oltinga almashtirishdan bosh tortishi natijasida bu tizim barham topdi.²⁷

Shundan so'ng, Yamayka valyuta tizimi tashkil topdi. Yamayka bitimi — 1976 yil yanvarda Kingston (Yamayka)da Xalqaro valyuta fondi (XVF) a'zolari bulgan mamlakatlar vakillari kengashida tuzilgan bitimga muvofiq tashkil topgan va 1978 yil apreldan kuchga kirgan jahon valyuta tizimi hisoblanadi.²⁸

Yamayka bitimi XVF ustaviga o'zgarishlar kiritdi va ilgari Bretton-Vuds bitimi (1944) dan farq qiladigan (bu bitimga ko'ra XVF a'zolari bulgan mamlakatlar o'z valyutasi kursini dollarga yoki oltinga nisbatan belgilar edi)

²⁶ Ражабов Қ. ва бошқалар. Жаҳон тарихининг муҳим саналари (Энг қадимги даврларда бугунги кунгача). — Т.: «Ўзбекистон», 2011, 545-бет.

²⁷ Қаранг: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2001, 213-214-бетлар.

²⁸ Бешлосс М., Тэлбот С. На самом высшем уровне. Закулисная история окончания холодной войны. М., 1994.

infratuzilma tamoyillarini belgiladi, Birinchidan, oltinga va ikki zaxira valyuta — AQSH dollari va Buyuk Britaniya funt sterlingiga asoslangan oltin deviz standarti 1969 yildan amalga kiritilgan SDR (maxsus qarz olish huquqlari) standarti bilan almashtirildi va uning valyutalar paritetlari hamda valyutalar kursi asosini tashkil etishi belgilab qo'yildi. Uning shartli qiymati 5 valyuta (AQSH dollari, GFR markasi, Shveysariya franki, Angliya funt sterlingi, Yaponiya ienasi)dan iborat valyuta savati bn aniqlanadigan buldi. Bu valyutalar XVF Ustaviga kura, «erkin almashtiriladigan valyutalar» deb nomlandi.

Ikkinchidan, Yamayka valyuta tizimi oltinning valyuta birliklari qiymati me'yori tarzidagi vazifasini, qog'oz pullarning oltin ta'minotini bekor qildi. Natijada oltinning qat'iy baholari tugatildi va oltin jahon puli mavqeini yo'qotdi. Yamayka valyuta tizimi doirasida oltinning pul funksiyalarini bajarishga barham berilgani qonunlashtirildi. Uchinchidan, banklarga oltinni xususiy bozorlarda shakllangan narhlarda erkin sotib olish va sotish imkoniyati berildi²⁹.

Mamlakatlar o'rtasidagi valyuta munosabatlari ularning milliy pul birliklarining suzib yuruvchi («sirg'aluvchi») kurslariga asoslanadigan bo'ldi, ya'ni har bir mamlakatga o'z valyuta kursi uchun istalgan rejimni tanlash huquqini berdi. Bu bilan suzuvchi valyuta kurslari rejimi qonunlashtirildi va mamlakatlar 1973 yil martidan shu rejimga o'tdilar. Valyuta kurslari tebranishlari asosiy 2 omil: valyutalarning ichki bozordagi xarid qobiliyatining real qiymati nisbatlari bilan, ikkinchidan, xalqaro bozorlarda milliy valyutalarga bulgan talab va taklif nisbati bilan belgilanadigan bo'ldi. Bu nisbatlar kapitalning mamlakatlararo stixiyali oqib utishi natijasida o'zgarib turadi.

Bu tizimning amal qilishi bir qator murakkab muammolarni keltirib chiqaradi. Yuridik jihatdan oltinning pul funksiyasi bekor qilinganiga qaramay, u favqulodda jahon puli va ishonchli zaxira aktivi maqomini saqlab kelmoqda. Jahon bo'yicha markaziy banklar va xususiy tadbirkorlar qo'lida 60 ming t. dan kuproq oltin

²⁹ Кальвокоресси П. Мировая политика после 1945 года. М., 2000.

alohida likvid tovar sifatida saqlanadi.³⁰

Yevropa valyuta bitimi (Yeuropean Monetary Agreement) — Yevropa to'lov ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarning valyuta munosabatlari, qisqa muddatli kreditlash va ko'p tomonlama o'zaro (hamkorlik) hisob-kitoblar bo'yicha hamkorlik bitimi.

1955 yil 5 avgustda tuzilib, 1958 yil dekabrda (1950 yilda tuzilgan Yevropa to'lov ittifoqi tugatilib, unga a'zo bo'lgan ko'pgina mamlakatlarning valyutalari muomalaga kiritilgach) joriy etildi. Yevropa valyuta bitimining maqsadi ko'p tomonlama hisob-kitob ishlarini bajarish orqali iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish edi. 1973 yilga kelib, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti doirasida bo'lgan Yevropa valyuta hamkorligi fondi tashkil etildi. Yevropa valyuta hamkorligi fondiga Direktorlar kengashi rahbarlik qiladi. Hisob-kitob ishlarini Bazeldagi xalkaro bank bajaradi³¹.

Yevropa valyuta hamkorligi fondi (Yeuropean Monetary Cooperation Fund) — Yevropa Ittifoqining maxsus fondi. 1972 yili Bazelda imzolangan tartibga solinadigan valyuta yo'lagini yaratish to'g'risidagi bitimni amaliyotga joriy etish maqsadida 1973 yilda tuzilgan. Fond Xalqaro hisob-kitoblar banki yordamida Ittifoq mamlakatlari valyuta bozorida intervensiyalar tufayli yuzaga keladigan o'zaro debet va kredit operatsiyalarida kliring agent sifatida faoliyat yuritadi.

Bundan tashqari fond Ittifoq doirasida ishtirokchi mamlakatlar to'lov balanslarida yuzaga keladigan vaqtinchalik qiyinchiliklarni engillatish imkoniyatini beruvchi qisqa muddatli kreditlar tizimini boshqaradi. Fond Yevropa valyuta tizimi doirasida ham shunday vazifalarni bajarib kelmoqda.³²

1973 yilda neft narxining keskin ko'tarilishi G'arbiy Yevropada iqtisodiy rivojlanishning pasayishiga olib keldi. Biroq bu xol Yevropa hamjamiyati

³⁰ Қаранг: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 10-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2005, 373-бет.

³¹ Каменская Г.В., Родионов А. Н. Политические системы современности. М., 1994.

³² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 413-414-бетлар.

a'zolarining muqobil energiya manbalarini qidirish, tejamkor texnologiyalarni qo'llashga majbur etdi.

Integratsiya jarayoni ishtirokchilari, uning geografik chegaralarini kengaytirish va yanada chuqurlashtirish ishini yana davom ettirdi.

YIH ga Buyuk Britaniya, Irlandiya va Daniyaning qo'shilishi (1973 yil 1 yanvar) natijasida a'zolarining soni 9 taga etdi va Yevropa «to'qqizligi» vujudga keldi.³³

1975 yilda Gretsiya, 1977 yilda Portugaliya va Ispaniya YIH ga qo'shilish to'g'risidagi arizalarini kiritdilar. Har uch davlat demokratik rivojlanish yo'lini tanladi: 1974 yil 25 aprelda Portugaliyada «chinnigullar inqilobi» sodir bo'ldi. Fashistik diktatura barham topdi va hokimiyat general di Spinoza boshliq harbiy xunta (Milliy najot kengashi) qo'liga o'tdi.³⁴

1974 yil iyulda Gretsiyada «qora polkovniklar»ning diktatorlik rejimi tugatildi. 1975 yil 20 noyabrda Ispaniyada fashistik diktator Fransisko Franko 82 yoshida vafot etdi. Uning o'limidan so'ng siyosiy tuzumda demokratlashuv jarayoni yuz berdi. Shahzoda Xuan Karlos – davlat boshlig'i, Adolf Suares premer-ministr lavozimida faoliyat olib borishdi.³⁵

YIH ga Portugaliya va Ispaniyaning qo'shilishi bo'yicha muzokaralar og'ir kechdi, chunki Fransiya va Italiya Iberiy yarim oroli mamlakatlarini sabzavot, meva, vino, savdosida raqobatini keltirib chiqarishdan qo'rqar edi.

Gretsiya 1981 yil 1 yanvardan Portugaliya va Ispaniya 1985 yil martda YIH ning to'la qonli a'zosiga aylandi. SHu bilan birga YIH o'zining siyosiy «vazni» ni orttirib bordi. Hamjamiyat a'zolari ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish darajalarini kengaytirish ishiga ko'proq kirisha boshladi. Bu esa o'z navbatida, YIH buyujeti uchun yig'implarni oshirish xisobiga qo'shimcha moliviy vositalarni talab qilar edi.

³³ Ражабов Қ. ва бошқалар. Жаҳон тарихининг муҳим саналари (Энг қадимги давлрларда бугунги кунгача). – Т.: «Ўзбекистон», 2011, 521-бет.

³⁴ Ражабов Қ. ва бошқалар. Жаҳон тарихининг муҳим саналари (Энг қадимги давлрларда бугунги кунгача). – Т.: «Ўзбекистон», 2011. 523-бет.

³⁵ Ражабов Қ. ва бошқалар. Жаҳон тарихининг муҳим саналари (Энг қадимги давлрларда бугунги кунгача). – Т.: «Ўзбекистон», 2011526-бет.

Buyuk Britaniyaning leyboristlardan tarkib topgan hukumati 1974 yilda hamjamiyat buyujetiga to'lovlarni kamaytirish shuningdek agrar siyosatini isloh qilish va YIH ning qishloq xo'jaligi sohasidagi umumiy siyosatida ishtirok etishdan Britaniyaga keltirayotgan zararni qoplashi mumkin bo'lgan Yevropa mintaqaviy rivojlanish fondini tashkil etish talabini qo'ydi.

Natijada, birinchi Lomey konvensiyasi imzolandi. 1975 yil fevral bu hujjat xamdo'stlik mamlakatlariga keng imkoniyatlarni ochib berdi. Shu yili Yevropa mintaqaviy rivojlanish fondi tashkil etildi. 1975 yil martida hamjamiyat buyujetiga Britaniyaga to'lov masalasi hal etildi. YIH a'zolari Buyuk Britaniyani umumiy buyujetga to'lovini 7 yil davomida qoplovchi mexanizimni ishlab chiqdilar³⁶.

Moliya va iqtisod sohasidagi qiyinchiliklar pul-kredit sohasini barqarorlashtirish va hamjamiyat a'zolarini yanada muofiqlashuvini talab etdi. 1979 yil YIH rahbar organlari Yevropa pul tizimini kiritish to'g'risidagi qarorini qabul qildi. U to'rt asosiy elementdan iborat edi.

1. Yevropa pul birligini (YKYU);
2. Pul ayriboshlash mexanizimi;
3. Umumiy kredit sharoitlari;
4. Transfert mexanizmi.

Yagona Yevropa pul tizimini kiritishdan maqsad Yevropada valyuta barqaror bo'lgan hududni shakllantirish, inflyasiyani qisqartirish iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini oshirish, YIH davlatlaridan bandlikni oshirishga erishish edi.³⁷

Yangi Yevropa pul birligi AQSH davlatlariga bog'liq bo'lmadi, uning qiymati YIH ishtirokchi davlatlari valyutasini xajmi bilan belgilandi. Xar bir davlatning YAIM va tashqi savdo aylanish xisobiga olindi. Ekyu ning asosiy ustunligi uning qiymati o'rtacha kattalikni tashkil etib, bozor konyukturasi to'liqlanishiga kamroq duchor bo'ldi.

³⁶ Борхардт К. Д. Азбука права Европейского сообщества. М., 1994.

³⁷ Заболотный В.М. Новейшая история стран Европы и Северной Америки: Конец XX – начало XXI века. Учебное пособие для студентов. –М.: Издательство АСТ, 2004, стр. 19.

Yevropa pul tizmi hamjamiyat ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy siyosatidagi farqlarni engib o'tishga erishilmagan bo'lsada barqarorligini isbotladi.

1974 yil davlat va hukumat boshliqlari darajasida Yevropa kengashi tuzildi shu yili bu tizimga ikkita muhim tavsiya qabul qildi: birinchisi Yevroparlamentni umumiy ovoz berish orqali saylash va ikkinchisi siyosiy ittifoqni tashkil etish to'g'risida edi. 1979 yil iyunida birinchi bor Yevroparlamentga umumiy saylovlar bo'lib o'tishi va u qo'shimcha legitimlikka ega bo'ldi uning vakolatlarini kengaytiruvchi asoslar yaratildi³⁸.

Siyosiy ittifoqning tashkil etishga maslahatlashuv va muzokaralar milliy davlat manfaatlari ustivorligi va ximoyachilari va davlatlar aro umumiy manfaatlar tarafdorlari o'rtasidagi an'anaviy munozaraga sabab bo'ldi.

1985 yil iyunda GFR kansleri Gelmut Kol va Fransiya prezidenti Fransua Mitteran Yevropa ittifoqi to'g'risidagi shartnomaning birgalikda tuzilgan loyihasini ilgari surdilar. Unda muvofiqlashgan mudofaa va tashqi siyosatni o'tkazish nazarda tutildi³⁹.

GFR va Fransiya davlat rahbarlari hamjamiyatning barcha a'zolari qo'llab-quvvatlamagan taqdirda ham «Yevropa ittifoqini qurish»ga intilishlarini to'xtatmasligini e'lon qildilar. Shunday qilib Yevropa integratsiyasiga siyosiy mezonlar nuqtai – nazaridan qarashga poydevor qo'yildi.

70-80 yillarda integratsiya jarayonining kengayishi va chuqurlashishi 1985 yilda yagona Yevropa aktining imzolanishi uchun asos bo'ldi. Shu yili yana bir diqqatga sazovor voqea, ya'ni Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiga kirgan mamlakatlar chegaralarida viza rejimini bekor qilishga qaratilgan birinchi Shengen shartnomasi imzolandi.⁴⁰

³⁸ Век XX: политика, люди, судьбы. Авт.сост. Ш.Эргашев, Т.Бобоматов, Н.Турсунов. –Т.: «Шарк», 2007

³⁹ Европейский союз: новый этап интеграции. М., 1996.

⁴⁰ Ражабов Қ. ва бошқалар. Жаҳон тарихининг муҳим саналари (Энг қадимги даврларда бугунги кунгача). – Т.: «Ўзбекистон», 2011, 544-бет.

II bob. Yevropa Ittifoqining kengayishi va uning O‘zbekiston bilan aloqalari

2.1. Yevropa Ittifoqining shakllanishida Maastrix shartnomasining o‘rni

1992 – yilda Yevropa hamjamiyatiga kiradigan barcha davlatlar Yevropa Ittifoqini tuzish haqidagi Maastrix shartnomasini imzoladilar. Maastrix shartnomasini YHning uch tayanchini yaratdi:

1. Iqtisodiy va valyuta sohasidagi ittifoq;
2. Tashqi siyosat va xavfsizlik sohasidagi siyosat;
3. Ichki ishlar va adliya sohasidagi umumiy siyosat;⁴¹

Yevropa ittifoqi (YI) — o‘zida xalqaro tashkilot va federativ davlat xususiyatlarini mujassamlashtirgan davlatlararo uyushma sifatiga ega bo‘lib bordi. Dastlab Yevropa hamjamiyati («Umumiy bozor») nomi bilan atalgan. YI to‘g‘risidagi shartnoma 1992 yil 7 fevralda Maastrixt shahrida (Niderlandiya) Yevropa hamjamiyatiga a‘zo bo‘lgan 12 davlat va hukumat boshliqlari imzo chekkan Yevropa mamlakatlarining siyosiy va valyuta-iqtisodiy ittifoqini vujudga

⁴¹ Қаранг: Заболотный В.М. Новейшая история стран Европы и Северной Америки: Конец XX – начало XXI века. Учебное пособие для студентов. –М.: Издательство АСТ, 2004, стр. 18-19

keltirdi. Unga ko‘ra Yevropa hamjamiyati Yevropa ittifoqiga aylantirildi.⁴² Bu shartnoma 1993 yil 1 noyabrdan kuchga kirgan.

Yevropa Ittifoqining tashkil topish tarixi aslida 1947 yilda «Ko‘mir va po‘lat» konsernining tashkil topishidan boshlanadi. 1993 yilda Yevropa Ittifoqi nomini olgan tashkilot Maastricht (Niderlandiya)da 12 ta davlatning rahbarlari imzolagan shartnomaga bino-an vujudga kelgan federativ davlat xususiyatlarini o‘zida birlashtirgan davlatlararo birlashmadir.

Yevropa Ittifoqining maqsad va vazifalari quyidagilardir:

1) Yevropa xalklarining yaqin ittifoqini tashkil etish, muvozanatlashgan va uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotga ko‘maklashish, bunda, ayniqsa, quyidagilardan foydalanish: ichki chegaralari bo‘lmagan makonni yaratish; iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish; yagona valyutani joriy etish;

2) xalqaro sohada, ayniqsa, tashqi siyosatni va xavfsizlik sohasidagi siyosatni, kelajakda esa mudofaa siyosatini birgalikda yuritish orqali o‘z mohiyatini tasdiqlash;

3) adliya va ichki ishlar sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish.⁴³

Keyingi 50 yil davomida beshinchi marta o‘z safiga yangi a‘zolari qabul qilgan bu tashkilot siyosiy, iqtisodiy, madaniy, harbiy-texnik, ilmiy-texnologik hamkorlikning sifat jihatdan eng zamonaviy ko‘rinishi bo‘lib, hozirgi davrda 25 davlat uning a‘zosidir. Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning jon boshiga 22 ming dollardan ortiq qiymatni tashkil etayotganligi, shubhasiz, bu hamkorlikning samarasidir.

Hududi 4,2 million kv.km.ni, aholisi esa 455 milliondan ortiq kishini tashkil etgan bu hududda Buyuk Britaniya, Daniya va SHvetsiyani hisobga olmaganda 2002 yilning 1 yanvaridan buyon yagona pul birligi — evro amal qilmoqda.⁴⁴

⁴² Ражабов Қ. ва бошқалар. Жаҳон тарихининг муҳим саналари (Энг қадимги давлрларда бутунги кунгача). – Т.: «Ўзбекистон», 2011, 578-579-бетлар.

⁴³ Қаранг: Одилқориев Х.Т., Раззоков Д.Х. Сиёсатшунослик. Олий таълим муассасалари талабалари учун дарслик. –Т.: Ўзбекистон файласуфлари жамияти, 2009. 279-280-бетлар.

⁴⁴ Саидкасимова Б. Магнетизм европейской интеграции // Хуқуқ-Право-Law. - 2004. - №2. 65-бет.

Yevropa Ittifoqining oliy ijrochi organlari — Yevropa Ittifoqi Kengashi, Yevroparlament va Yevrokomissiyadir.

YIning maqsadlari:

Yevropa xalqlarining mustahkam ittifoqini vujudga keltirish, ichki chegaralari bo‘lmagan makon yaratish, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zaro ta’sirni kuchaytirish yo‘li bilan muvofiqlashtirilgan uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotga yordam berish;

iqtisodiy va valyuta ittifoqini tashkil qilish va yagona valyuta yaratish (bu maqsadga 2002 yil yanvarda asosan erishildi);

birgalikda tashqi siyosat olib borish va xavfsizlik borasida siyosat yuritish, kelgusida esa birgalikda mudofaa siyosatini ham olib borish yo‘li bilan xalqaro sohada o‘ziga xos bir xillikni qaror toptirish;

adliya va ichki ishlar sohasida hamkorlikni rivojlantirish;

umumiy boylikni saqlab qolish va ko‘paytirish.⁴⁵

YI organlari: Yevropa mashvarati, Yevropa parlamenti, Yevropa Ittifoqi Kengashi, Yevropa komissiyasi, Yevropa sudi.

2002 yil yanvar holatiga Tashkilotga 15 mamlakat (Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gretsiya, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Portugaliya, Finlyandiya, Fransiya, Shvetsiya) a’zo edi. Qarorgohi Strasbur shahrida (Fransiya) joylashgan.

O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida YI bilan hamkorlik alohida o‘rin tutadi. Tashkilot TASHIS dasturi doirasida O‘zbekistonga texnikaviy yordam ko‘rsatadi. Yevropa - kavkaz - osiyo transport yo‘lagi, (TRACECA) - Yevropani Kavkaz orkali Osiyo bilan bog‘laydigan avtomobil va temir yo‘llari majmui hisoblanadi.

Dastlab Bryusselda 1993 yil may oyida O‘rta Osiyo respublikalari, Qozog‘iston, Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya davlatlarining savdo va transport vazirlari ishtirokida o‘tkazilgan konferensiyada bu yo‘lakni qurish dasturi qabul qilingan. Konferensiyada Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalanadigan G‘arb-

⁴⁵ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 410-бет.

Sharq yoʻnalishida Yevropadan Qora dengizni kesib oʻtib, Kavkaz, Kaspiy dengizi orqali Oʻrta Osiyo va undan Xitoyga chiqadigan transport yoʻlagini qurish boʻyicha texnikaviy hamkorlik haqida bitam imzolandi.⁴⁶

Ushbu dastur toʻgʻrisida Prezidentimiz I.A.Karimov ««TASIS» dasturi doirasida Yevropa Ittifoqining texnikaviy yordamini amalga oshirish orqali «Traseka» loyihasini roʻyobga chiqarish Oʻzbekistonni kommunikatsiya va transport bilan taʼminlashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda gʻoyat istiqbolli ahamiyatga ega. Bu loyiha Markaziy Osiyo mamlakatlari, Ozarbayjon, Gruziya hududi orqali Qora dengiz bandargohlariga olib chiqadigan Transkavkaz magistralini vujudga keltirishni nazarda tutadi» deb taʼkidlagan.⁴⁷

Prezident I.A.Karimovning dastur bilan bogʻliq quyidagi fikrlari ham ahamiyatga molik «Birinchi. Oʻzbekiston va boshqa qator Markaziy Osiyo davlatlari bevosita dengiz kommunikatsiyalariga olib chiqadigan yoʻllar yoʻq boʻlgan sharoitning naqadar murakkab ekanini chuqur his qiladi. Koʻpincha eksport va import qilinadigan mahsulotlarning yoʻl xarajatlari mahsulotning oʻzidan ham qimmatga tushib ketadi. Bu eksportni iqtisodiy jihatdan foydasiz, hayotiy muhim mahsulotlar importini esa qimmatlashtirib qoʻymoqda...

Ikkinchi. Loyihaning amalga oshirilishi oʻz mahsulotlarining Kavkazorti va Markaziy Osiyoning ulkan bozorlariga kirib kelishini, mazkur mintaqalarda oʻz taʼsirining kuchayishini istaydigan Yevropa mamlakatlari uchun ham birdek manfaatlidir. Loyihaning asosiy yutugʻi va jozibali jihati ham ana shundadir...

Uchinchi. Biz TRASEKA loyihasini harakatga keltirish orqali hamkorlarimiz, eng avvalo, Qirgʻiziston va Xitoy bilan faol ish olib borilayotgan boshqa bir qator loyihalarni ham amalga oshirishni koʻzda tutamiz. Men Fargʻona vodiysini Xitoyning sharqiy viloyatlari bilan bogʻlaydigan yoʻlni qurish va uning mavjud qismlarini taʼmirlashni nazarda tutayapman. Bu haqda Qirgʻiziston Prezidenti Asqar Akaev ham gapirib oʻtdi...

⁴⁶ Қаранг: Жўраев Н. Файзуллаев Т. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 3-китоб. тўлдирилган ва қайта нашр. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2009, 608-612-бетлар.

⁴⁷ Каримов И. А. Ҳавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. - Т.: 1998. 32-бет.

To'rtinchi. Yevropa-Kavkaz-Osiyo transport yo'lagining barpo etilishi mintaqalararo iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, shu yo'nalishdagi mamlakatlar iqtisodiyotini jonlantirish, bu mamlakatlarda yashayotgan odamlarning ish bilan bandlik darajasi hamda turmush farovonligini oshirishda yangi istiqbollar ochadi...»⁴⁸

Dasturni amalga oshirish maqsadlari:

Markaziy Osiyo va Kavkazorti respublikalarining Yevropa va jahon bozorlariga muqobil transport yo'laklari orqali chiqishiga imkoniyat yaratish bilan ularning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini qo'llab-quvvatlash;

bu respublikalar o'rtasida mintaqaviy hamkorlikni yanada rivojlantirishga ko'maklashish;

bu yo'lakni Trans Yevropa tarmoqlari (TENS) bilan bog'lash va boshqalardan iborat.

Yevropa-Kavkaz-Osiyo transport yo'lagi Markaziy Osiyodan yuklarni jahon bozorlariga xizmat ko'rsatadigan yirik tonnajli dengiz kemalariga etkazib berish uchun eng qisqa va eng arzon yo'ldir. 2000 yilga qadar texnikaviy hamkorlikning 28 tadqiqoti (37 mln. evro) va infratuzilmalarni tiklash bo'yicha 10 investitsiya loyihasi (48 mln. evro) mablag' bilan ta'minlandi.

Yo'lakni barpo qilishda yirik xalqaro moliyaviy muassasalar ishtirok etadi. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki yo'nalish bo'yicha portlar, temir yo'llar va avtomobil yo'llari kapital loyihalari (umumiy miqdori 250 mln. AQSH dollari), Jahon banki Armaniston va Gruziyadagi avtomobil yo'llari bo'yicha kapital loyihalarini (40 mln. AQSH dollari) va Osiyo taraqqiyot banki avtomobil va temir yo'llarni takomillashtirishni moliyalash majburiyatini olgan. Yevropa Ittifoqidagi xususiy investorlar Markaziy Osiyo va Kavkazdagi transport kompaniyalari bilan qo'shma korxonalar tashkil qilgan⁴⁹.

⁴⁸ Каримов И. А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т. 7. - Т.: 1999. 176-177-бетлар.

⁴⁹ Камолова З. Ўзбекистон – Европа Иттифоқи ҳамкорлиги. «Жамият ва бошқарув» журналі. 2010 йил, 4-сон, 91-бет.

Yevropa-Kavkaz-Osiyo transport yo‘lagining umumiy uzunligi 10 ming km.dan ortiq. Uning 677 km (Olot — Buxoro — Navoiy — Samarkand — Jizzax — Toshkent — G‘ishtko‘prik yo‘nalishi) O‘zbekiston hududidan o‘tadi.⁵⁰

Ushbu yo‘lakning dastlabki yillardagi faoliyati to‘g‘risida Prezidentimiz I.A.Karimov «Agar O‘zbekistonning Transkavkaz yo‘lagidan olib o‘tilgan eksport-import yuklari hajmi 1996 yilda 140 ming, 1997 yilda 285 ming tonnani tashkil etgan bo‘lsa, joriy yilning sakkiz oyi mobaynida bu ko‘rsatkich 240 ming tonnadan oshib ketdi. Ushbu yo‘l ochilgandan buyon birgina O‘zbekiston bilan eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha hamkorlik doirasida 470 million AQSH dollari hajmidagi 660 ming tonna hayotiy muhim yuklar tashildi.»⁵¹deb baho bergan.

1999 yil 1 iyulda O‘zbekiston bilan YI o‘rtasida Sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim ratifikatsiya qilindi. Bu bitim siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy aloqalar rivoji uchun imkoniyat tug‘dirdi. Jumladan, tomonlar o‘zaro savdoda bir-birlariga eng qulay sharoit yaratadilar, bir-birlariga tegishli to-varlarni o‘z hududlari orqali erkin tranzit qilishni ta’minlaydilar.

1994 yilda Avstriya, Filyandiya, Norvegiya va Shvetsiyada YI ga qo‘shilish to‘g‘risida referendum o‘tkazildi. Noveglarning ko‘pchiligi yana qarshi ovoz berdi.

Avstriya, Finlyandiya (Alant orollari bilan birgalikda) va Shvetsiya 1995 yil 1 yanvardan Yevropa ittifoqiga a’zo bo‘ldi. Ittifoqqa a’zo davlat soni 15 taga etdi. Shu bilan birga mart oyida a’zo davlatlar chegaralarida viza rejimini bekor qilishga qaratilgan Shengen shartnomasi hayotga joriy etildi.⁵² Unga Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Belgiya va Lyuksemburg kirgan bo‘lsa, keyinchalik

⁵⁰ Мирзаев Т. «Европа - Кавказ - Осиё транспорт йўлаги, Трасеса», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 412-413-бетлар.

⁵¹ Каримов И. А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз.Т. 7. - Т.: 1999. 175-176-бетлар

⁵² Ражабов Қ. ва бошқалар. Жаҳон тарихининг муҳим саналари (Энг қадимги даврларда бугунги кунгача). – Т.: «Ўзбекистон», 2011, 587-бет.

Avstriya, Italiya, Gretsiya ham qo'shildi. 2001 yildan shengen hududiga Finlyandiya, Daniya, Norvegiya, Islandiya va Shvetsiya integratsiyalashdi.⁵³

Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi a'zolidagi Norvegiya, Islandiya, Shvetsariya va Lextenshteyn qoladi.

2.2. Yevropa Ittifoqidagi integratsiyaning chuqurlashishi va a'zo davlatlar sonining ortishi.

Shu o'rinda Yevropa ittifoqi davlatlarining soni maslasidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqish barobarida ularning ittifoqqa qo'shilishi bilan bog'liq ma'lumotlarni umumiy xolda berib o'tishni o'rinli deb topdik. Dastlab ittifoqning tashkil etuvchilari va a'zolarining soni 6 ta bo'lib, ular 1957-yilda bir-birlari bilan yaqin iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yishni rejalashtirgan va shu borada o'zlarining imkoniyatlarini birlashtirgan davlatlar bo'lib, ular - Belgiya, Germaniya Federativ Respublikasi, Fransiya, Italiya, Lyuksemburg va Niderlandiya davlatlaridir.

1973-yilda Yevropa ittifoqining teng huquqli a'zolari sifatida Daniya, Irlandiya va Buyuk Britaniya qabul qilindi va ittifoqqa davlatlarning soni 9 taga etadi⁵⁴.

⁵³ Заболотный В.М. Новейшая история стран Европы и Северной Америки: Конец XX – начало XXI века. Учебное пособие для студентов. –М.: Издательство АСТ, 2004, стр. 25.

1981-yilda tashkilotning a'zoliciga Gretsiya qabul qilindi va a'zo davlatlarning soni 10 taga etadi.

1986-yil ittifoqning a'zolari soni yana ikkitaga etib, unga Pireney yarim orolining ikki mamlakati Portugaliya va Ispaniya a'zolar sifatida qabul qilindi va natijada Yevropaning 12 ta davlati bir-birlari bilan iqtisodiy jihatdan bog'landi⁵⁵.

1995-yilda ittifoqning mavqei yanada ortada, sababi unga a'zo sifatida Yevropaning Shimolida joylashgan va o'zlarining iqtisodiy ko'rsatgichlari bilan dunyo miqyosida ham tan olinadigan Avstriya, Finlyandiya va Shvetsiya o'zlarining iqtisodiy imkoniyatlarini Yevropaning boshqa davlatlarining imkoniyatlari bilan birlashtirishadi va ittifoqning a'zolari soni 15 taga etadi⁵⁶.

2004yil Yevropa ittifoqining a'zolari soni bir yo'la 10 ta davlat bilan boyidi va natijada Yevropa davlatlari bilan o'zlarining iqtisodiy munosabatlarini birlashtirish ishlarini Kipr, Chexiya, Estoniya, Vengriya, Latviya, Litva, Malta, Polsha, Slovakiya, Sloveniya kabi davlatlar yakuniga etkazishadi.

2007-yilda sobiq sotsialistik lagerning a'zolari bo'lgan va 1990-yillardan keyin bozor munosabatlariga o'tishni rejalashtirgan va o'zlarining iqtisodiy munosabatlarini Yevropaning boshqa davlatlari bilan bog'lash maqsadida Bolgariya va Ruminiya Yevropa ittifoqining 26 va 27 a'zolari sifatida qabul qilindi⁵⁷.

⁵⁴ Мирзаев Т. «Европа - Кавказ - Осиё транспорт йўлаги, Трасеса», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 412-413-бетлар.

⁵⁵ Камолова З. Ўзбекистон – Европа Иттифоқи ҳамкорлиги. «Жамият ва бошқарув» журналы. 2010 йил, 4-сон, 91-бет.

⁵⁶ Мирзаев Т. «Европа - Кавказ - Осиё транспорт йўлаги, Трасеса», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 412-413-бетлар.

⁵⁷ Мирзаев Т. «Европа - Кавказ - Осиё транспорт йўлаги, Трасеса», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 412-413-бетлар.

2013-yilda esa Yevropa ittifoqining a'zolari Xorvatiyaning 28-davlat sifatida qabul qilinishi bilan uning Bolqon yarim orolidagi mavqei yanada mustahkamlandi⁵⁸.

1997 yilda YH a'zolari tomonidan Amsterdam shartnomasi tuzildi. (Shartnoma 1999 yilda kuchga kirdi.) Shartnomada asosan quyidagi yo'nalishlarga o'zgartirishlar kiritildi:

- umumiy tashqi va xavfsizlik sohasidagi siyosat;
- «Erkinlik, xavfsizlik va huquqiy tartibot muhiti»ni yaratish;
- terrorizm va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, odil sudlov sohasidagi muvofiqlashuv⁵⁹.

Maastrix shartnomasi 1992 yil 7 fevralda Maastrix shahrida imzolandi va Yevropa ittifoqi tuzilishini boshlab berdi. Shartnoma 1993 yil 1 noyabrdan kuchga kirdi. Ushbu shartnoma oldingi yillarda boshlangan Yevropa mamlakatlarining umumiy pul va siyosiy tizimini shakllantirish ishini yakunladi.

Yevropa ittifoqining pul-kredit sohasidagi siyosati YI davlatlari milliy Markaziy banklari va Yevropa markaziy bankidan tarkib topgan Yevropa Markaziy banklari tizimi zimmasiga yuklatildi. Yevropa markaziy banki (YMB) — Yevropa valyuta ittifoqining asosiy muassasasiga aylandi. Bu bank Yevropa Ittifoqi qaroriga ko'ra 1998 yil 1 iyunda tashkil etilgan. Boshqaruvi Germaniyaning Frankfurt-Mayn shahrida joylashgan.

Asosiy vazifasi yagona valyuta — evroni muomalaga kiritgan Yevropa valyuta ittifoqiga a'zo mamlakatlar pul siyosatini amalga oshirishdan iborat. YMB tizimi ikki bosqichli bo'lib, yuqori bosqichda YMB va quyi bosqichda Yevropa iqtisodiy va pul hamjamiyatiga a'zo mamlakatlarning milliy Markaziy banklari turadi.

Bu Markaziy banklar ayni paytda YMB bilan birga Yevropa Markaziy

⁵⁸ Камолова З. Ўзбекистон – Европа Иттифоқи ҳамкорлиги. «Жамият ва бошқарув» журнаси. 2010 йил, 4-сон, 91-бет.

⁵⁹ Мирзаев Т. «Европа - Кавказ - Осиё транспорт йўлаги, Трасеса», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 412-413-бетлар.

banklari tizimini hosil qiladi. YMB va milliy Markaziy banklar boshqa har qanday Yevropa yoki milliy organlarning ko'rsatmalaridan foydalanmaydi yoki ularga amal qilmaydi. Bank barcha hisob-kitoblarni evroda olib boradi va uning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. 1999 yil 1 yanvardan boshlab pul siyosatini tartibga solish YMB boshqaruvchilari Kengashining mutlaqi vakolatiga kiradi. Milliy Markaziy banklar boshqaruvchilari Kengash a'zolari hisoblanadi.⁶⁰

Maastrix shartnomasining imzolanishi natijasi o'laroq, Yevropa pul birligi sifatida Yevro muomalaga kiritildi. Yevro (Yeuro) — Yevropa Ittifoqi tarkibidagi Yevropa iqtisodiy va pul hamjamiyati a'zolari (Avstriya, Belgiya, Germaniya, Gretsiya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Portugaliya, Finlyandiya va Fransiya)ning pul birligi.

Xalqaro ifodasi YUR. 1999 yil 1 yanvardan muomalaga chiqarilgan. 1evro=100sent. 1999 yil 1 yanvardan 2002 yil 1 yanvarga qadar evro naqd pulsiz to'lovlarda ishlatildi, evro bilan bir qatorda bu mamlakatlarning milliy pul birliklari ham muomalada yurdi. Yevro muomalaga kiritilishi bilan ilgari shu mamlakatlar o'rtasida xalqaro to'lovlarda foydalanilgan ekyu muomaladan chiqarildi va ular ekyuning so'nggi qiymati (1998 yil 31 yanvar holati) bo'yicha evroga tengma-teng almashtirildi⁶¹.

Ayni paytda milliy pul birliklarining evroga nisbatan valyuta kurslari ham belgilandi (masalan, 1evro=1,95583 nemis markasi; 1evro=1936,27 italyan lirasi; 1evro=200,482 portugal eskudosi va boshqalar; 1998 yil 31 dekabr holatiga). 2002 yil 1 yanvardan 5, 10, 20, 50, 100, 200, 500 evro qog'oz banknotlari, 1, 2 evro va 1, 2, 5, 10, 20, 50 sentli tangalar muomalaga kiritildi (Yevropa iqtisodiy va pul hamjamiyatiga a'zo mamlakatlarning eski milliy pul birliklari muomalasi to'xtatildi). Xalqaro valyutalar kursi bo'yicha 1 AQSH dollari = 1,13 evro, O'zbekiston Respublikasi milliy pul birligi — so'mga nisbatan 1 evro=599 so'm

⁶⁰ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 411-бет.

⁶¹ Камолова З. Ўзбекистон – Европа Иттифоқи ҳамкорлиги. «Жамият ва бошқарув» журналі. 2010 йил, 4-сон, 91-бет.

01 tiyin (2002 yil fevral holatiga).⁶²

Maastrix shartnomasi a'zo davlatlar o'rtasida ittifoqning uch asosi iqtisodiyot va ijtimoiy siyosat, xalqaro munosabatlar va xavfsizlik, sud huquq va ichki ishlar sohasidagi yaqin munosabatlar o'rnatdi.

Shartnomaning ratifikatsiya qilinishi bir qator davlatlarda qiyinchiliklarni keltirib chiqardi.

Fransiyada shartnoma bo'yicha o'tkazilgan referendumda 51,05% ga qo'llab quvvatlangan bo'lsa, Daniya shartnomaning nomidanoq uni inkor etdi. Buyuk Britaniyada shartnoma parlamentda hukumatni qo'llab quvvatlovchi guruhning shartnomaga qarshi bo'lganlar ustidan kichik ustunligi bilan ratifikatsiya qilindi⁶³.

Maastrix shartnomasini imzolagan davlatlar Yevropa valyuta ittifoqiga kirgan mamlakatlar javob berishi lozim bo'lgan 5 ta mezonni tasdiqladilar:

1. Davlat buyujetini defitsiti YAIM ning 3% dan oshmasligi kerak;
2. Davlatning qarzi YAIM ning 60 % dan kam bo'lishi kerak.
3. Davlat ikki yil davomida valyuta siyosati mexanizimida ishtirok etishi va milliy valyuta kursini tegishli diapazonda ushlab turishi kerak.
4. Inflyasiyaning darajasi eng barqaror narhlarga ega bo'lgan uchta YI ishtirokchi davlatidagi o'rtacha ko'rsatkichning 1,5 % dan oshmasligi kerak.
5. Uzoq muddatli davlat obligatsiyalari bo'yicha foiz stavkalari eng kam inflyasiyaga ega bo'lgan davlatlardagi shunday ko'rsatkichlarning o'rtachasida 2% dan oshmasligi kerak⁶⁴.

Yevropa ittifoqi qonun ustivorligiga asoslanadi. Unda amalga oshirilgan barcha ishlar a'zo davlatlar tamonidan o'z xohishiga ko'ra, demokratik asosda qo'shilgan shartnomalardan kelib chiqadi. Ilgari imzolangan shartnomalar jamiyat

⁶² Мирзахолов А. «Евро (Euro)», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 405-бет.

⁶³ Мирзаев Т. «Европа - Кавказ - Осиё транспорт йўлаги, Трасеса», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 412-413-бетлар.

⁶⁴ Камолова З. Ўзбекистон – Европа Иттифоқи ҳамкорлиги. «Жамият ва бошқарув» журналі. 2010 йил, 4-сон, 91-бет.

taraqqiyoti bilan hamnafas bo'lish nuqtai nazaridan o'zgartirib borildi, yoki yangilandi.

Yevropa ittifoqining shakllanishidagi eng asosiy shartnomalar quyidagilar edi:

Lissabon shartnomasi – 2007 yil 13 dekabrda Lissabonda imzolandi. Shartnoma kuchga kirishdan oldin 27 ta a'zo davlat tomonidan ratifikatsiya qilinishi kerak edi. Bu jarayonni 2009 yil iyunda Yevroparlamentga o'tkazilajak saylovlarga qadar yakunlanishi kutilgan edi. Shartnomaning maqsadi:

YI ni yanada demokratlashtirish YI fuqarolarini yuqori darajadagi qiyosiy ishtirok, ochiqlik, oshkoralik va hisob berishga doir istaklarini ro'yobga chiqarish, YI ni iqlim o'zgarishi, xavfsizlik hamda taraqqiyot kabi global masalalarni hal etishga kirisha oladigan tashkilotga aylantirishdan iborat.

Lissabon shartnomasi yagona konstitutsiya to'g'risidagi munozaralarni keltirib chiqardi. «Yevropa uchun yagona konstitutsiyani joriy etish bo'yicha shartnoma» davlat va hukumat rahbarlari tomonidan 2004 yil 17-18 iyunda Brusselda Yevropa kengashida tasdiqlangan va 2004 yil 29 oktyabrda Rimda imzolangan edi, lekin keyinchalik ratifikatsiya qilinmadi⁶⁵.

Nitssa shartnomasi 2001 yil 26 fevralda imzolangan va 2003 yil 1 fevralda kuchga kirgan. Shartnoma YI ga a'zo davlatlarining soni 25 taga etganidan so'ng ittifoqning ijroiya vazifalarini amalga oshira olishi uchun institutsional islohatlar bilan bog'liq edi. Nitssa shartnomasi va YIni tuzish to'g'risidagi shartnoma va YH shartnomasini yagona muvofiqlashgan holga keltirdi.

Amsterdam shartnomasi 1997 yil 2 oktyabrda imzolandi va 1999 yil 1 mayda kuchga kirdi. U YI va YH shartnomalarini qayta ko'rib chiqdi va tuzatish kiritdi. YI va YH shartnomalarining muvofiqlashgan shakli unga qo'shib ketdi. Amsterdam shartnomasi Yevropa umumittifoqi to'g'risidagi shartnoma bandlarini

⁶⁵ Мирзахолов А. «Евро (Euro)», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 405-бет.

o'zgartirdi, «A» dan «S» gacha bo'lgan harflarni belgilanish raqamli shaklga o'tkazildi⁶⁶.

Yevropa umumittifoqi shartnomasi 1992 yil 7 fevralda imzolandi va 1993 yilning 1 noyabrida kuchga kirdi.⁶⁷ Maastrix shartnomasi Yevropa iqtisodiy hamjamiyati nomini Yevropa hamjamiyati nomi bilan o'zgartirdi. Shu bilan birga u a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasida mudofaa odil sudlov va ichki ishlar kabi sohalarida hamkorlikning yangi shakllarini kiritdi. Mavjud hamjamiyat tuzilishiga hukumat ichki tuzilmasidagi hamkorlikning qo'shilishi bilan Maastrix shartnomasi uch ustunga ega bo'lgan iqtisodiyotdan ko'ra, siyosiy tuzilmaga ko'proq yaqin bo'lgan yangi ko'rinishga ega bo'ldi. Bu Yevropa Ittifoqi edi⁶⁸.

YAgona Yevropa akti Lyuksemburg va Gaagada imzolangan bo'lib 1987 yil 1 iyuldan kuchga kirdi hamda ichki bozorni shakllantirish yo'lida muvofiqlashtirishni boshdan kechirdi.

Qo'shilish shartnomasi 1965 yil 8 aprelda Bryussellda imzolandi va 1967 yil 1 iyuldan kuchga kirdi. U uch Yevropa hamjamiyatining yagona komissiya va yagona kengashini yuzaga keltirdi⁶⁹.

Rim shartnomasi - Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini tuzish to'g'risidagi shartnoma 1957 yil 25 martda imzolanib, 1958 yil 1 yanvardan kuchga kirgan. Yevropaning Atom energiyasi bo'yicha hamjamiyati (Yevroatom) ni tuzish to'g'risidagi shartnoma huddi shu vaqtda imzolangan bo'lib, bu ikki shartnoma birgalikda Rim shartnomalari nomini olgan.

Po'lat va ko'mir bo'yicha Yevropa hamjamiyatini tuzish to'g'risidagi shartnoma - 1951 yil 18 aprelda Parijda tuzilgan bo'lib, 1952 yil 23 iyulda kuchga

⁶⁶ Камолова З. Ўзбекистон – Европа Иттифоқи ҳамкорлиги. «Жамият ва бошқарув» журналі. 2010 йил, 4-сон, 91-бет.

⁶⁷ Ражабов Қ. ва бошқалар. Жаҳон тарихининг муҳим саналари (Энг қадимги даврларда бугунги кунгача). – Т.: «Ўзбекистон», 2011, 578-бет.

⁶⁸ Мирзаев Т. «Европа - Кавказ - Осиё транспорт йўлаги, Трасеса», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 412-413-бетлар.

⁶⁹ Мирзаев Т. «Европа - Кавказ - Осиё транспорт йўлаги, Трасеса», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 412-413-бетлар.

kirgan va 2002 yil 23 iyulga qadar amalda bo'ldi. Bundan tashqari sanab o'tilgan YI ning asosini tashkil etuvchi shartnomalarga bir necha sabablarga ko'ra o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, bu xol asosan yangi a'zo davlatlar 1973 yilda Daniya, Irlandiya, Buyuk Britaniya, 1981 yilda Gretsiya, 1986 yilda Ispaniya, Portugaliya, 1995 yilda Avstriya, Finlandiya, Shvetsiya va 2004 yilda Chexiya, Kipr, Estoniya, Vengriya, Lambiya, Litva, Mal'ta, Pol'sha, Slavakiya, Sloveniya ning qo'shilishi natijasida sodir bo'ldi⁷⁰.

Shartnomalarga ko'ra, YI inistitutlari a'zo davlatlar tomonidan ijro etiladigan qonunchilikni qabul qilishi mumkin.

Yevropa integratsiyasining to'rtinchi bosqichi - 2002 yil 9 oktyabrda Yevropa komissiyasi 2004 yilda Yevropa Ittifoqi kirishga nomzod bo'lgan 10 ta davlatni tavsiya etdi: Estoniya, Litva, Pol'sha, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Sloveniya, Kipr va Mal'ta. Ushbu 10 ta davlatning aholisi 75 mln.ni tashkil etib, ularning YAIMi 840 mlrd. AQSH dollari yoki qiyoslash uchun birgina Ispaniyaning YAIMi bilan deyarli teng.

Yevropa Ittifoqining bunday kengayishi shu davrdagi eng katta rejalardan biri edi. Bunday qadam qo'yishga turtki bo'lgan istak ikkinchi jahon urushi yakunidan keyin davom etgan Yevropani ajratib olish va g'arbga sharqiy Yevropa mamlakatlarini mustahkamroq bog'lash ularni qayta kommunistik boshqaruv metodlariga qaytishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat edi. Kipr bu ro'yxatga Turkiyaning talabi bilan qo'shib, aks holda Turkiya butun rejaga veto qo'yish bilan tahdid qildi⁷¹,

Yevropa ittifoqining «eski» va «yangi» a'zolari o'rtasidagi muzokaralar tugagandan so'ng, yakuniy, ijobiy qaror 2002 yil 13 dekabrda e'lon qilindi. Yevropa parlamenti tomonidan 2003 yil 9 aprelida bu qaror tasdiqlandi.

⁷⁰ Мирзахолов А. «Евро (Euro)», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 405-бет.

⁷¹ Мирзаев Т. «Европа - Кавказ - Осиё транспорт йўлаги, Трасеса», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 412-413-бетлар.

2003 yil 16 aprelda Afinada YIning 15 ta « eski» va 10 ta « yangi» a'zolari tomonidan qo'shilish haqida shartnoma imzolandi. 2003 yil 9ta davlat Kiprdan tashqari referendum o'tkazildi, so'ngra shartnoma parlamentlar tomonidan ratifikatsiya qilindi.

2004 yil 1 mayda Estoniya, Latviya, Litva, Polsha, Chexiya, Slovakiya, Sloveniya, Kipr va Malta YIning a'zolariga aylandi⁷².

Kiprning YIga kirishi orolning har ikki tomonida o'tkazilgan referendumdan so'ng amalgam oshdi. Tan olinmagan Shimoliy Kipr turk respublikasi, aholisining ko'pchiligi orolni yagona davlatga birlashtirishga qarshi ovoz began bo'lsa-da, birlashish jarayoni aynan greklar tomonidan to'sqinlikka uchradi va YIga yakka o'zi a'zolikka kirdi.

Iqtisodiy rivojlanish darajasi Yevropaning o'rtacha ko'rsatkichlarini sezilarli darajada past bo'lgan 10 ta yangi davlatning YIga qo'shilishi, YI etakchi davlatlarining ijtimoiy sohaga byudjet jamg'armalari, qishloq ho'jaligi dotatsiya hokazolarning asosiy yukini bo'yniga olishiga to'g'ri keldi, ayni vaqtda mamlakatlar umumittifoq byudjetiga YI hujjatlarida belgilangan YAIM ning 1% darajasidan orttirishni istamayapti⁷³.

YI kengashidan keyingi ikkinchi masala, shu davrga qadar muhim qarorlarini konsensus yo'li bilan qabul qilish tamoyilini samaradorligi pasayganida ko'rinadi. 2005 yilda Fransiya va Niderlandiyada bo'lib o'tgan referendumlarda YIning yagona Konstitutsiya loyihasi qaytarildi, natijada YI xali ham bir qator shartnomalar asosida yashab kelmoqda.

2007 yil 1 yanvarda Bolgariya va Ruminiyaning YIga qo'shilishi, uning chegaralarini yanada kengaytirdi. Avvalroq YI Ruminiya va Bolgariyani korrupsiyaga qarshi kurash va qonunchilikni isloh qilish borasida ko'p ishlarni amalga oshirish lozimligi to'g'risida ogohlantirgan edi. Ushbu masalalarda Yevropa amaldorlarining fikriga ko'ra, Ruminiya ortda qolgan va sotsializmning

⁷² Гончарова Т. Человечество на пороге XXI века. Взгляды зарубежных политологов. М., 1997.

⁷³ Камолова З. Ўзбекистон – Европа Иттифоқи ҳамкорлиги. «Жамият ва бошқарув» журналі. 2010 йил, 4-сон, 91-бет.

iqtisodiyot tuzilmasidagi qoldiqlaridan voz kechmay YI talablariga javob bermayotgan edi.

2005 yil 15 dekabrda Makedoniya YIga kirishga rasmiy nomzodlik maqomiga ega bo'ldi⁷⁴.

2005 yil 21 fevralda YI Ukraina bilan harakat rejasini imzoladi. Bu holat balki, Ukrainada hokimiyat tepasiga YIga kirishga yo'naltirilgan tashqi siyosiy strategiyasini qo'llovchi kuchlarning kelishi bilan bog'liqdir. Ayni vaqtda YI rahbarinig fikriga ko'ra, Ukrainani tashkilotga to'laqonli a'zoli to'g'risida so'z yuritishga hali erta.

1951 yilda Po'lat va ko'mir bo'yicha Yevropa uyushmasini tuzgan Parij shartnomasi imzolandi. Parij shartnomasi xalqaro qonunchilikka asoslangan bo'lib, Yevropa qit'asi iqtisodiyotini qayta tiklash, Yevropada urushning oldini olish va tinchlik hamda barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan edi.

Bu shartnomani tuzish g'oyasi fransuz davlat xizmatchisi Jann Mone tomonidan taklif qiligan va 1950 yil 9 maydagi deklaratsiyada e'lon qilindi. Ushbu hujjating maqsadi ko'mir va po'lat ishlab chiqarish bo'yicha fransuz-german bozorini yaratish bo'lib, shu ikki homashyoning mamlakatlar sanoati uchun asos (xarbiy ishlab chiqarish uchun ham) va energiya manbai ekanligi ham hisobga olingan⁷⁵.

Taklif etilgan rejaga ko'ra, fransuz-german p'ola mahsuloti quyish va ko'mir kombinatlari boshqa Yevropa davlatlari ittifoq etish uchun ochiq bo'lgan yagona tizimli boshqaruvi ostiga o'tadi. Ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa uyushmasini tuzim fransuz-german iqtisodiy munosabatlarini mustahkamlash va kelajakdashi ikki davlat o'rtasida bir necha kelishish mumkin bo'lgan harbiy harakatlarga yo'l qo'ymaslik ham juda mumkin edi.

⁷⁴ Мирзахолов А. «Евро (Euro)», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 405-бет.

⁷⁵ Камолова З. Ўзбекистон – Европа Иттифоқи ҳамкорлиги. «Жамият ва бoшқарув» журналі. 2010 йил, 4-сон, 91-бет.

Fransiya, Germaniya, Italiya, Bulgiya, Lyuksemburg va Niderlandiya sharnomaga qo'shilishi bo'yicha muzokaralarni boshlab yubordi. Ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa uyushmasini tashkil etgan hujjat 1951 yil 18 aprelda Parijda imzolandi va 1952 yil 14 iyulda kuchga kirdi. Shartnoma 2002 yil 23 iyulga qadar tuzildi. Umum Yevropa bozoriga asos solindi. 1953 yil 1 fevralda ko'mir va metal bo'yicha 1953 yil 1 mayda po'lat bo'yicha yagona savdo maydoni tashkil etildi⁷⁶.

G'arbiy Yevropa ittifoqi 1948 yilda mudofaa va xavfsizlik sohasida hamkorlik nuqtai nazardan tuzilgan tashkilot. U tarkibiga to'rt xil mavqeiga ega bo'lgan 28 ta davlatni oladi: a'zo davlatlar, umumiy a'zolar, kuzatuvchilar va umumiy hamkorlar.

2004 yilda YIning kengayguniga qadar a'zolari bo'lgan davlatlardan kuzatuvchi sifatida Avstriya, Daniya, Finlandiya, Shvetsiya, Irlandiyadan tashqari davlatlar shu tashkilotlar a'zosi edi. Islandiya, Norvegiya, Polsha, Turkiya, Vengriya, Cexiya, Bolgariya, estoniya, Latviya, Litva, Ruminiya, Slovakiya va Sloveniya umumiy hamkor davlatlar maqomiga ega bo'lgan⁷⁷.

1997 yilgi Amsterdam shartnomasi G'arbiy Yevropa umumittifoqini Ittifoq rivojlanishining ajralmas qismiga aylantirib, unga mudofaa sohasida tezkor vakolatlarni berdi. G'arbiy Yevropa ittifoqi Bolqon bo'yicha Piterbergda kelishilgan vaifalarni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Hozirda bu mamlakatlar o'z fazifalarini hamkorlikda tashqi xavfsizlik siyosatini rivojlantirayotgan YI bo'linmalariga o'tkazib bermoqda⁷⁸.

2000 yil noyabrda G'arbiy Yevropa ittifoqining xavfsizlik bo'yicha Vazirlar kengashi ushbu tashkilotni bosqichma-bosqich isloh etish va uning vakolatlarini YI tuzilmalariga o'tkazib boorish to'g'risida qaror qabul qildi. 2002 yil 1 yanvarda G'arbiy Yevropa ittifoqining xavfsizlik instituti va sun'iy yo'ldosh markazi kabi

⁷⁶ Камолова З. Ўзбекистон – Европа Иттифоқи ҳамкорлиги. «Жамият ва бошқарув» журналы. 2010 йил, 4-сон, 91-бет.

⁷⁷ Мирзаев Т. «Европа - Кавказ - Осиё транспорт йўлаги, Трасеса», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 412-413-бетлар.

⁷⁸ Мирзахолов А. «Евро (Euro)», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 405-бет.

muassalari YIGa kirdi. G'arbiy Yevropa ittifoqining o'zida qolgan kollektiv funksiyasining YIGa o'tkazilishi keyinga qoldirildi.

1948 yil 17 martda 5ta G'arbiy Yevropa davlati: Belgiya, Buyuk Britaniya, Lyuksemburg, Niderlandiya va Fransiya Bryussel paktini imzoladilar. Shartnomaning dastlabki uchta moddasi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniyat sohasidagi hamkorlikka bag'ishlangan edi, lekin mumkin bo'lgan bosqinchiga (avvalo sobiq SSSR) qarshi kollektiv mudofaa to'g'risidagi bandlar ushbu shartnomaning mazmunini belgilab berdi⁷⁹.

Shartnomaga ko'ra, ishtirokchi davlatlar ulardan biri yoki bir nechitasi qurolli hujum yoki bosqin qurboniga aylansa, qolganlari (BMT nizomining 51-bandida nazarda tutilgan kollektiv mudofaa) «hujum qurboniga aylangan tomonga harbiy va bosha yordam ko'satish, shuningdek, uning harakatlariga ko'mak berish» majburiyatini oldilar. Bryussel paktini imzolashning asosiy sabablar:

- «sovet harbiy tahdidi» oldida qo'rquv-sobiq SSSR va uning markaziy, janubi –sharqiy Yevropadagi ittifoqchilari tomonidan agressiya ehtimoli;

- Germaniya militarizmining uyg'onishi va urush ochishga yangi urinishlarning oldini olishdan iborat edi.

1949 yilda NATOning paydo bo'lishi bilan Bryussel pakti va uni imzolagan 5 davlatning kollektiv mudofaasini ta'minlash sohasidagi ahamiyati pasaydi. Shartnomaning dastlabki matnida uni amalga oshirishningtashkiliy mexanzmi to'g'risida bandlar yo'q edi. Bryussel shartnomasi tashkiloti (G'arbiy Yevropa ittifoqi) ning vazirlari NATOga o'tkazildi. Parij bitimi (1954 yil 24 oktyabr) shartnomaga o'zgartirishlar kiritib, uning asosida G'arbiy Yevropa ittifoqi mahsus tuzilmasini tuzilishini taqozo etardi. Parij bitimining tuzilishi bilan shartnomaga G'arbiy Germaniya va Italiya qo'shildi⁸⁰.

⁷⁹ Мирзаев Т. «Европа - Кавказ - Осиё транспорт йўлаги, Trasesa», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 412-413-бетлар.

⁸⁰ Мирзахолов А. «Евро (Euro)», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 405-бет.

Sovuq urushi yillarida shimoliy atlantika ittifoqi faoliyati g'arbiy Yevropa ittifoqining o'rnini bosdi. Bu holat ushbu tashkilotning faoliyatini yakunlashga olib kelmadi. 1980 yillarning o'rtalarida o'rtalarida G'arbiy Yevropa ittifoqi faoliyatini «qayta tiklash»ga urinishlar amalga oshirildi, lekin bu tashkilotning haqiqiy tiklanishi 1992 yilgi Yevropa ittifoqi to'g'risidagi Maastrix shartnomasining imzolanishi ilan sodir bo'ldi. 1996 yildan tashkilot mudofaa sohasidagi tezkor funksiyalarni amalga oshirish boshladi⁸¹.

2000 yillar davomida G'arbiy Yevropa ittifoqining YI havfsizligini ta'minlash sohasidagi ta'siri kamayib bordi. Uning aksariyat vazifalari Lissabon shartnomasi bilan almashtirildi. 2010 yil martda G'arbiy Yevropa Ittifoqi faoliyatini 2011 yilga qadar to'xtatish rejasi e'lon qilindi⁸².

Parij shartnomasi 1951 yil 18 aprelda Fransiya, G'arbiy Germaniya, Italiya va uchta Benilyuks (Belgiya, Lyuksemburg va Niderlandiya) mamlakatlari tomonidan imzolandi hamda Ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa uyushmasini yaratdi, bu uyushma o'z o'rnida YIning bir bo'lagiga aylandi. Shartnoma 1952 yil 23 iyuldan kuchga kirdi va 2002 yil 23 iyulda muddati tugaganligi uchun rosa 50 yildan so'ng o'z kuchini yo'qotdi⁸³.

Shartnoma ikkinchi jahon urushidan so'ng Yevropani birlashtirish ishida asosiy o'rinni egalladi. U urush davrida bir-biriga dushman bo'lgan davlatlarni birlashtirdi va oldinroq harbiy harakatlarda markaziy o'rinni egallagan ko'mir va po'lat ishlab chiqarishda hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

Parij kelishuvlari 1954 yil 23 oktyabrda Parijda AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya va GFR shuningdek, Italiya, Belgiya, Lyuksemburg vakillari tomonidan

⁸¹ Мирзаев Т. «Европа - Кавказ - Осиё транспорт йўлаги, Трасеса», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 412-413-бетлар.

⁸² Мирзаев Т. «Европа - Кавказ - Осиё транспорт йўлаги, Трасеса», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 412-413-бетлар.

⁸³ Камолова З. Ўзбекистон – Европа Иттифоқи ҳамкорлиги. «Жамият ва бошқарув» журналі. 2010 йил, 4-сон, 91-бет.

imzolangan harbiy, siyosiy va boshqa masalalarga doir hujjatlar majmui (1955 yil 5 maydan kuchga kirgan)⁸⁴ .

Parij kelishuvlarining asosiylari:

- AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, GFR tomonidan GFRda okkupatsion tartibini tarqalishi to'g'risidagi protokol NATO tarkibida Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg va GFR tomonidan 1948 yilgi Bryussel paktini o'zgartirish va to'ldirish asosida G'arbiy Yevropa ittifoqi harbiy-siyosiy uyushmasini tuzish to'g'risidagi protokol;

- GFRni Shimoliy Atlantika paktiga qo'shilishi to'g'risida NATOga a'zo davlatlarning rezolyusiyasi.

- Parij kelishuvlari G'arbiy Germaniyaga qo'shilgan. Harbiy ishlab chiqarishga doir cheklovlarni sezilarli darajada sustlashtirildi va GFRning qurollanishini legallashtirdi. SHu bilan birga GFRga yadro va boshqa turdagi ommaviy qirg'in qurollarini ishlab chiqarishini taqiqlaydi.

- GFR hukumati xalqaro maydonda butun nemis xalqi tomonidan «yagona vakil» deb e'lon qilindi. AQSH, Fransiya va Buyuk Britaniya g'arbiy Berlindagi harbiy kuchlari va huquqlarini saqlab qolishni tasdiqladilar.

Bu kelishuvlarga SSSR, GFR va boshqa sotsialistik davlatlar qarshi chiqdilar⁸⁵.

-»Qo'shilish shartnomasi» (yoki Bryussel shartnomasi) Ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa uyushmasi, atomenergiyasi bo'yicha Yevropa hamjamiyati (evroatom) hamda Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini yagona tashkilot, tuzilmaga birlashtirdi⁸⁶.

Shartnoma 1965 yil 8 aprelda Bryusselda imzolandi va 1967 yil 1 iyulda kuchga kirdi. Unda YIH kengashi va komissiyasi evroatom kengashi, komissiyasi

⁸⁴ Мирзахолов А. «Евро (Euro)», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 405-бет.

⁸⁵ Мирзаев Т. «Европа - Кавказ - Осиё транспорт йўлаги, Трасеса», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 412-413-бетлар.

⁸⁶ Камолова З. Ўзбекистон – Европа Иттифоқи ҳамкорлиги. «Жамият ва бошқарув» журналы. 2010 йил, 4-сон, 91-бет.

shuningdek, ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa uyushmasi kengashi, oliy organi o'rnini bosish kerak edi. Harbiy organ huquqiy jihatdan mustaqil bo'lsada, umumiy institutlar paydo bo'ldi.(Bu shartnomaga qadar umumiy parlament Assambleyasi va sud mavjud edi) va Yevropa hamjamiyatlari tomonidan Yevropa ittifoqining amalda yuzaga kelish sifatida qaraldi.

Ushbu hujjat 1997 yilda imzolangan Amsterdam shartnomasi bilan bekor qilindi.

Yevropa kengashi Yevropa umumittifoqining oliy siyosiy organi bo'lib, YIga a'zo davlat va hukumat rahbarlaridan tarkib topgan. 2,5 yil muddatga saylanadigan Yevropa kengashi raisi va Yevropa komissiya raisi ham a'zo hisoblanadi.

Yevropa kengashini tashkil etish Fransiya prezidenti Sharl de Golning YI davlatlari etakchilarining norasmiy uchrashuvlarini o'tkazib turish g'oyasi asosiga qurilib, integratsion jarayonlarda milliy davlatlar rolini pastlab ketishini oldini olishga qaratilgan edi⁸⁷.

Norasmiy sammitlar 1961 yildan o'tkazila boshlandi. 1974 yilda Parijdagi sammitda Fransiya prezidenti Villeri Jiskar d'Estenning taklifiga binoan bu amaliyot rasmiylashtirildi.

Kengash YIning asosiy strategik yo'nalishlarini belgilab berdi.

Yevropa kengashining asosiy vazifasi siyosiy integratsiyaning bosh yo'nalishini belgilashdan iborat. Vazirlar kengashi bilan bir qatorda Yevropa kengashi Yevropa integratsiyasining asosiy shartnomalarini o'zgartirish kiritish bilan bog'liq siyosiy funksiyaga ega. Uning majlislari YI kengashida boshchilik qilayotgan davlatlarni vakili raisligida shu davlatda yoki Bryusselda yiliga kamida ikki marotaba o'tkaziladi. Majlislar ikki kun davom etadi.

Unda qabul qilingan qarorlar siyosiy ko'rsatma hususiyatiga ega bo'lib, majburiy yuridik kuchga ham ega bo'ldi. Uning qarorlari qaratilgan institutlar,

⁸⁷ Мирзахолов А. «Евро (Euro)», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 405-бет.

organlar va muassasalar shu bilan birga a'zo davlatlar ham ularni ijro etish, amaliyotga joriy etishga majburlar⁸⁸.

Yevropa kengashini YI kengashidan farqlash lozim. 2009 yilda Yevropa umumittifoqiga a'zo davlatlar tomonidan Lissabon shartnomasi ratifikatsiya qilinganidan so'ng Yevropa kengashi YI instituti maqomiga ega bo'ldi. Uning doirasida amalga oshirilayotgan boshqaruv yuqori darajadagi siyosatchilar ishiroki natijasi o'laroq katta ahamiyat va legitimlikka ega.

2011 yil 1-yanvar holatiga ko'ra kengash a'zolari:

- Xerman Van Pompey-Yevropa kengashi raisi (ovoz berish huquqiga ega emas);

- Verner Fayman – Avstriya;
- Iv Letrm – Belgiya;
- Boyka Borisov – Bolgariya;
- Dimitric Xristofis – Kipr;
- Petr Nechas – CHexiya;
- Lars Lyokke Rassmussen – Daniya;
- Andrus Ansip – Estoniya;
- Mari Kiviniemi – Finlandiya;
- Nikolya Sarkozi – Fransiya;
- Angela Merkel – Germaniya;
- Georgios Papandreu – Gritsiya
- Viktor Orban – Vengriya;
- Brayan Kouen – Irlandiya;
- Silvio Berluskoni – Italiya;
- Baldis Dombroviskis – Latviya;
- Andryus Kubilyus – Litva;
- Jan-Klod YUnker – Lyuksemburg;
- Lourens Gonzi – Malta;

⁸⁸ Мирзахолов А. «Евро (Euro)», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 405-бет.

- Mark Ryutte –Niderlandiya;
- Donald Tusk – Polsha;
- Joze Sokratesh – Portugaliya;
- Emil Bok – Rumiiya;
- Iveta Radichova - Slovakiya;
- Borut Paxor – Sloveniya;
- Xose Luis Sapatero – Ispaniya;
- YOn Raynfeldt – SHvetsiya;
- Devid Kameron – Velikobritaniya;
- Joze Barrozu – evrokomissiya raisi (ovoz berish huquqiga ega emas)⁸⁹.

Yagona Yevropa akti 1957 yildagi Rim shartnomasining birinchi jiddiy qayta ko‘rib chiqishi natijasida yuzaga keldi. Ushbu akt Yevropa hamjamiyatida 1992 yil 31 dekabrda umumiy bozorni yaratishni nazarda tutdi hamda umumiy tashqi siyosiy va havfsizlik shartnomasini yangi ko‘rinishi bo‘lgan Yevropa siyosiy hamjamiyati g‘oyasini shakllantirdi. 1986 yil 12 fevral Lyuksemburgda va shu yili 28 fevralda Gaagada imzoladi. 1987 yil 1 iyulda kuchga kirdi⁹⁰.

1980 yillarda Yevropa hamjamiyati a‘zolari o‘rtasida erkin savdoning amalda yo‘qligi oqibatida norozilikka javoban tuzilgan bo‘lib, siyosiy yetakchilar va ishbilarmon doiralar tamonidan davlatlar o‘rtasida qonunlarni muvofiqlashtirish, siyosiy kelishmovchiliklarni hal etish maqsadida yaratildi. Umumiy bozorni tahlil qiluvchi qo‘mita zaruriy karorlarni ishlab chiqdi, bu o‘z navbatida YAEAgga asos bo‘ldi.

YAEAni eng muhim tarkibiy qismlaridan biri YH doirasida 1992 yilda umumiy bozorni yaratish edi. Umumiy bozorni shakllantirishning shu muddatda rejalashtirishi qonunchilikka doir zaruriy islohotlarini yakunlanishi bilan bog‘liq edi. Shu maqsadda YAEA doirasida qonunchilik jarayoniga hamkorlik amaliyotini

⁸⁹ Мирзаев Т. «Европа - Кавказ - Осиё транспорт йўлаги, Trasesa», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 412-413-бетлар.

⁹⁰ Жўраев Н. Файзуллаев Т. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 3-китоб. тўлдирилган ва қайта нашр. –Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2009.

kiritish orqali isloh qilindi, shuningdek YIKda ovoz beruvchi hududlarni yanada kengaytirdi. Bu choralar qonunchilik jarayoni uchun ketadigan vaqtni qisqartirdi⁹¹.

YAEAda hamkorlik yuzasidan davlatlar o'rtasida qolgan to'siqlarni olib tashladi va Yevropa malakatlaridagi uyg'unlashuv hamda raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan edi.

Amsterdam shartnomasi Yevropa ittifoqi to'g'risidagi, Yevropa hamjamiyatlarini tuzish to'g'risidagi shartnomaga va shu bilan bog'liq boshqa aktlarga o'zgartirishlar kiritdi. Bu shartnoma 1997 yil 2 oktyabrda imzolandi va 1999 yil 1 maydan kuchga kirdi. 1992 yildagi Maastrixda imzolangan shartnoma sezilarli o'zgartirishlar kiritdi⁹².

Nitssa shartnomasi 2001 yil 26 fevralda Yevropa etakchilari tomonidan imzolandi. 2003 yil 1 fevralda kuchga kirdi. Bu shartnoma ham Maastrix shartnomasiga (yoki YI to'g'risidagi shartnoma), shuningdek, Rim shartnomasiga (yoki Yevropa hamjamiyatlari to'g'risidagi shartnoma) o'zgartirishlar kiritdi. Mazkur shartnoma tashkilotning sharqqa tomon kengaytirish uchun Yevropa ittifoqining institutsional tizimini isloh qildi. Shu bilan birga Amsterdam shartnomasi tomonidan ilgari surilgan, lekin shu davrga qadar hal etilmagan masalani echdi.

Shartnomani kuchga kiritish 2001 iyunda Irlandiyada o'tkazilgan referendumda fuqarolar tomonidan rad etilish oqibatida ortga surildi. Keyinchalik bir yildan so'ng qayta o'tkazilgan referendumning ijobiy natijasi samarasi o'laroq kuchga kirdi. Lissabon shartnomasi (rasmiy nomlanishi - «Yevropa ittifoqi to'g'risidagi shartnoma va Yevropa hamjamiyatlarini tuzish to'g'risidagi shartnomaga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi Lisabon shartnomasi»)⁹³.

⁹¹ Мирзахолов А. «Евро (Euro)», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 405-бет.

⁹² Мирзаев Т. «Европа - Кавказ - Осиё транспорт йўлаги, Трасеса», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 412-413-бетлар.

⁹³ Жўраев Н. Файзуллаев Т. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 3-китоб. тўлдирилган ва қайта нашр. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2009.

YIning 2007 yil 13 dekabrda Lissabon shahrida joylashgan ieronimitlar monastirida bo‘lib o‘tgan sammitida imzolangan xalqaro shartnoma. Bu shartnoma kuchga kirmagan YI konstitutsiyasining o‘rnini bosishi va YI boshqaruv tizimini isloh etish maqsadida amaldagi shartnomalarga o‘zgartirishlar kiritishi kerak edi⁹⁴.

YIni isloh qilish to‘g‘risidagi shartnoma 27 ittifoqchi-davlatlardan tarkib topgan YIning faoliyatini yaxshilash maqsadida tuzilgan. Uning global o‘zgarishlar sharoitida jahon miqiyosidagi obro‘i va rolini oshirishga qaratilgan bo‘lib, 2007 yil 19 oktyabrda Lissabonda bo‘lib o‘tgan hukumatlararo konferensiyada yakuniy shaklga keltirildi. Mazkur shartnoma YIning kelgusi 10-20 yillik faoliyati asoslarini belgilab berishiga umid bildirilmoqda.

2007 yil 13 dekabrda shartnomaning imzolanishi, uning ishtirokchi davlatlar tomonidan imzolanishi jarayonini boshlab berdi (2008).

Shartnomani ratifikatsiya qilinish jarayonida Irlandiya va Chexiyada qiyinchiliklar yuzaga keldi. Chexiyada parlamentning 3/5 qismi shartnomani ma’qullashi lozim bulsa, Irlandiyada referendumdan o‘tishi kerak edi.

Shunga qaramay, 27ta mamlakat parlamentida shartnomaning qo‘llab quvatlanishi 15 yildan beri davom etib kelayotgan YI ning siyosiy va institutsional isloh etish masalasini yakuniga etkazdi. YIning asosiy shartnomalariga kiritilgan o‘zgarishlarga 2,5 yil (2004 yil apreldan 2007 yil 1 yanvargacha) muddat ichida bu tashkilot ishtirokchi davlatlar soni 15 dan 27tagacha oshgan, umumiy aholisi yarim mlrd. ga etgani sabab bo‘ldi⁹⁵.

Mazkur shartnoma YI konstitutsiyasi loyihasining (2004 yil iyunda imzolangan loyiha) o‘rnini bosish kerak edi. 2005 yilda YI konstitutsiyasi loyihasi Fransiya va Niderlandiyadagi referendumlarda rad etilishi natijasida tashkilot institutsional jihatdan boshi berk ko‘chaga kirib qoldi. Yevropa ittifoqining keyingi rivoji uchun kollektiv muassasalar, faoliyat tamoyillari tartibini soddalashtirish

⁹⁴ Мирзахолов А. «Евро (Euro)», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 405-бет.

⁹⁵ Жўраев Н. Файзуллаев Т. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 3-китоб. тўлдирилган ва қайта нашр. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2009.

hamda yanada tushunarli, shakli keltirish zarur edi. Lissabon shartnomasi ayni shu maqsadga qaratilgan edi⁹⁶.

YI ni isloh qilish to'g'risidagi ushbu shartnoma tashkilotga a'zo davlatlar maqsadlari va manfaatlari mutanosibligini mustahkamladi. Shartnoma matni YI ning uchta asosiy hujjati – Yevropa hamjamiyatlarini tuzish to'g'risidagi shartnoma (Rim shartnomasi, 1957 yil), Maastrix shartnomasi (1992 yil) va atomenergiyasi bo'yicha Yevropa hamjamiyatini tuzish to'g'risidagi shartnoma (1957 yil)ga o'zgartirishlar kiritdi.

⁹⁶ Мирзаев Т. «Европа - Кавказ - Осиё транспорт йўлаги, Трасеса», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 412-413-бетлар.

III. bob. Yevropa ittifoqi davlatlarining O‘zbekiston Respublikasi bilan aloqalari va Yevropa ittifoqi tajribasini O‘rta Osiyoda qo‘llash mumkinmi.

3.1. O‘zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan hamkorligi.

O‘zbekiston mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab Yevropa bilan hamkorlikni o‘z tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab oldi. O‘zbekiston bilan Yevropa mamlakatlari o‘rtasidagi munosabatlar ikki tomonlama va 1999 yilning 1 iyulidan kuchga kirgan. O‘zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi hamda unga a‘zo davlatlar bilan Sherikchilik va hamkorlik kelishuvi doirasida rivojlanib bormoqda.

Tashqi ishlar vazirligi tomonidan Yevropa mamlakatlari bilan siyosiy muloqotni yanada rivojlantirishga, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirishga qaratilgan tadbirlar o‘tkazish bo‘yicha doimiy ish olib borilmoqda.

O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan ikki tomonlama muloqoti faol xarakterga ega bo‘lib, u 5 asosiy qo‘shma organ doirasida amalga oshirilmoqda: hamkorlik kengashi, hamkorlik qo‘mitasi, Parlament hamkorligi qo‘mitasi, Savdo va investitsiyalar bo‘yicha quyi qo‘mita hamda Adliya, ichki ishlar va boshqa masalalar bo‘yicha quyi qo‘mita⁹⁷.

Hozirgi kunga qadar hamkorlik Kengashining 9 ta yig‘ilishi (oxirgisi 2009 yil sentyabrda Bryusselda), hamkorlik qo‘mitasining 8 ta yig‘ilishi (oxirgisi 2010 yil

⁹⁷ Жўраев Н. Файзуллаев Т. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 3-китоб. тўлдирилган ва қайта нашр. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2009.

iyulda Toshkentda), Parlament hamkorlik qo'mitasi 8 ta yig'ilishi (2010 yil oktyabr, Toshkent), Savdo va investiciyalar bo'yicha Kichik qo'mita 7 ta yig'ilishi, Adliya, ichki ishlar, inson huquqlari va boshqa turdosh masalalar bo'yicha Kichik qo'mita 7 ta yig'ilishi (2010 yil may, Bryussel) o'tkazildi.⁹⁸

O'zbekistonning Yevropa mamlakatlari bilan siyosiy va savdo-iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish hamda mustahkamlash doirasida so'nggi yillardagi hamkorligi va tashriflar almashinuvi ikki tomonlama va mintaqalararo doirada faollashib bormoqda.

2011 yil 24 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Bryusselga tashrifi bo'lib o'tdi. Tashrif doirasida Yevropa Komissiyasi prezidenti J.M.Barrozo va Yevropa Ittifoqining energetika masalalari bo'yicha komissari G.Ettinger bilan uchrashuvlar o'tkazildi. Shuningdek O'zbekistonda YI diplomatik vakolatxonasini (Delegatsiyasini) tasis etish to'g'risidagi kelishuv, O'zbekiston Respublikasi va YI o'rtasida energetika sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi Bayonnoma hamda 2011-2013 yillarda Yevropa Komissiyasi texnik ko'magi Indikativ dasturini amalga oshirish to'g'risidagi Bayonnoma imzolandi⁹⁹.

O'zbekiston tashqi siyosatini Yevropa Ittifoqisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, o'z navbatida, O'zbekiston ham Yevropa Ittifoqi uchun muhim o'rin tutadi, Yevropa Ittifoqi Parlamenti deputati J. Attard-Montaldo bu borada quyidagi fikrni bildirgan edi; «Bir vaqtlar Prezident R. Nikson har bir mintaqada uning timsoli bo'lgan davlat bor deya, Italiyani misol qilib keltirgan edi. Agar Markaziy Osiyoni ifoda etadigan mamlakatni ko'rsatish kerak bo'lsa, men shubhasiz, O'zbekistonni tanlagan bo'lardim».¹⁰⁰

O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi aloqalar 1992 yilning 15 aprelida O'zbekiston Respublikasi hukumati va Yevropa Ittifoqi hamjamiyatlari

⁹⁸ http://mfa.uz/rus/mej_sotr/uzb_mejd_org/uzbekistan_es/

⁹⁹ Мирзаев Т. «Европа - Кавказ - Осиё транспорт йўлаги, Трасеса», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 412-413-бетлар.

¹⁰⁰ Камолова З. Ўзбекистон – Европа Иттифоқи ҳамкорлиги. «Жамият ва бошқарув» журналі. 2010 йил, 4-сон, 91-бет.

Komissiyasi o'rtasida Memorandum imzolanishi bilan o'rnatildi, 1994 yilning 16 noyabrida esa ikki tomon o'rtasida diplomatik munosabatlar yo'lga qo'yildi. 1995 yili Bryusselda YI huzurida O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonasi faoliyat ko'rsata boshladi.¹⁰¹

1996 yil 22 iyunda Florensiya shahrida (Italiya) «Forteza da Basso qal'asida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov va YI Kengashi raisi bo'lgan Italiya vazirlar kengashi raisi Romano Prodi Sherikchilik va hamkorlik bitimini imzoladilar. Yurtboshimizning fikricha, hozirgi davrda Markaziy Osiyoning o'sib borayotgan iqtisodiy va siyosiy ahamiyati nafaqat savdo-iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlarimiz istiqbollari uchun ishonch bilan qarash, balki O'zbekiston va YI o'rtasida strategik sherikchilik munosabatlari uchun shart-sharoitlar hozirlash imkonini beradi, Yevropa Ittifoqi Komissiyasining sobiq raisi Jak Santerning so'zlariga ko'ra, bitim O'zbekiston va YI o'rtasida siyosiy muzokaralar uchun mustahkam asos yaratadi. U hozirgi vaqtda birmuncha past darajada bo'lgan savdo va investitsiyalar hajmini ko'paytirishga ko'maklashadi¹⁰².

O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi sherikchilik va hamkorlik to'g'risidagi bitimga binoan bir nechta qo'shma organ, xususan, O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi hamkorlik kengashi, Hamkorlik qo'mitasi, Parlament hamkorlik qo'mitasi, Savdo va sarmoyalar bo'yicha quyi qo'mita, Adliya, ichki ishlar, inson xuquqlari va turdosh masalalar bo'yicha quyi qo'mitalar faoliyat ko'rsatmoqda¹⁰³.

Shuningdek, ilmiy-texnikaviy, ta'lim, madaniyat va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida qo'shma loyihalar ishlab chiqilmoda, YIga a'zo davlatlarning O'zbekiston Respublikasi bilan hamkorlik qilishdan manfaatdorligi o'zaro munosabatlarni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish, hamkorlik hamda sherikchilik aloqalarini, siyosiy va iqtisodiy erkinliklarni mustahkamlash,

¹⁰¹ Ўзбекистон жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох қилиш йўлида. –Т.: «Akademiya», 2005, 370-бет.

¹⁰² Мирзаев Т. «Европа - Кавказ - Осиё транспорт йўлаги, Трасеса», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 412-413-бетлар.

¹⁰³ Жўраев Н. Файзуллаев Т. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 3-китоб. тўлдирилган ва қайта нашр. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2009.

Markaziy Osiyoda tinchlik hamda barkarorlikni, O'zbekistonning mustaqilligi, suvereniteti va hududiy yaxlitligini ta'minlashga ko'maklashish kabi masalalar bilan bog'liq.

Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston Respublikasi munosabatlari haqida so'z yuritganda, albatta, 2008 yilning 17 yanvarida Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili P.Morelning mamlakatimizga tashrif buyurganini esga olish darkor.

Ma'lumki, P. Morel Yevropa Ittifoqi bilan Markaziy Osiyo davlatlari, shu jumladan, O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikni rivojlaitirishga munosib hissa qo'shgan arbob sanaladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Yevropa Ittifoqi nafaqat O'zbekiston balki u orqali butun Markaziy Osiyo davlatlari bilan bo'ladigan munosabatlarga alohida e'tibor bilan qaratadi. Germaniya Yevropa Ittifoqiga raislik qilgan 2007 yilda YIning Markaziy Osiyo bo'yicha uzoq muddatli strategiyasi ishlab chiqildi.

Sloveniya raislik qilgan 2008 yilning 1 yanvaridan o'lim jazosining bekor qilishi va qamokqa olish bo'yicha sanksiya berish huquqi sudlarga o'tganligi Yevropa Ittifoqi tomonidan rasman e'tirof etildi.¹⁰⁴

O'zbekistonning geostrategik joylashuvi transport sohasidagi aloqalarni rivojlantirish, Afg'onistonni tiklanish ishlarini amalga oshirish, umuman, mintaqaviy xavfsizlikni mustahmlash borasidagi xamkorlikni kengaytirish imkonini yaratadi. SHu urinda ta'kidlash joizki, 2010 yil 15 noyabrda mamlakatimizga Yevropa Ittifoqi Komissiyasining Taraqqiyot bo'yicha komissari A. Piebalgs rahbarligida delegatsiya tashrif buyurib, Prezident Islom Karimov uchrashuv chog'ida A.Piebalgs Yevropa O'zbekiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor ekanini ta'kidladi¹⁰⁵.

¹⁰⁴ Камолова З. Ўзбекистон – Европа Иттифоқи ҳамкорлиги. «Жамият ва бошқарув» журналі. 2010 йил, 4-сон, 91-бет.

¹⁰⁵ Жўраев Н. Файзуллаев Т. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 3-китоб. тўлдирилган ва қайта нашр. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2009.

Shu bilan birgalikda, A.Piebalgs davlatimiz rahbariga, Qirg'iziston janubida ro'y bergan voqealarga vazminlik va donolik bilan munosabatda bo'lganligi, Afg'onistonni ijtimoiy-iqtisodiy tiklash borasidagi sa'y-harakatlari uchun minnatdorchilik bildirdi. Bu O'zbekistonniig Markaziy Osiyoda olib borayotgan tashqi siyosati to'la-to'kis qo'llab-quvatlanayotganidan darak beradi.

Xulosa shuki, Yevropa Ittifoqi va tashkilotga azo davlatlar O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida munosib o'rin tutadi, shu bilan birgalikda, Yevropa Ittifoqi va tashkilotga a'zo davlatlar O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida tutgan o'ziga xos nufuzi va Prezident Islom Karimov tomonidan mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan tashabbuslar va sa'y-harakatlarning ahamiyatini to'liq tan olgan holda respublikamiz bilan munosabatlar ko'lamini kengaytirishga harakat qilmoqda.

Bryussel shahriga oliy darajadagi tashrif Yevropa Ittifoqining O'zbekiston Respublikasi bilan turli sohalardagi o'zaro manfaatli hamkorlikni teng huquqlik va o'zaro sheriklik asosida kengaytirishga bo'lgan qiziqishini namoyon etdi. Tashrif davomida bir necha bor takidlab o'tilganidek, tomonlar hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha salmoqli salohiyatga ega. Mazkur salohiyatni amalga oshirish o'zaro manfaatlarga javob beradi¹⁰⁶.

2004 yilda YI tashabbusi bilan tasis etilgan Yevropa Ittifoqi-Markaziy Osiyo mintaqalararo muloqoti doirasida 2011 yil 7 aprelda Toshkentda tashqi ishlar vazirlari darajasidagi navbatdagi «Yevropa Ittifoqi-Markaziy Osiyo» uchrashuvi bo'lib o'tdi. Tekstil tovarlari savdosi to'g'risidagi o'zaro Kelishuvning amal qilish muddati tugashi munosabati bilan, tadbir davomida O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasida sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi Kelishuvga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha Protokol imzolandi¹⁰⁷.

¹⁰⁶ Жўраев Н. Файзуллаев Т. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 3-китоб. тўлдирилган ва қайта нашр. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2009.

¹⁰⁷ Жўраев Н. Файзуллаев Т. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 3-китоб. тўлдирилган ва қайта нашр. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2009.

O‘zbekiston jahondagi yirik, xalqaro maydonda etakchi o‘rin tutadigan davlatlar - AQSH, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Fransiya va Yevropa Ittifoqining boshqa, mamlakatlari bilan hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlashga alohida e‘tibor bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari haqida fikr yuritishdan oldin xalqaro munosabatlarda muhim rol o‘ynovchi «asosiy uchlik» haqida to‘xtalish lozim. Ya’ni bular AQSH, Yevropa Ittifoqi va Yaponiyadir. Bu uchlik birgalikda jahon bozoridagi ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb yarmidan ko‘pini etkazib beradi, ularning eksport va import ulushi ham jahon savdo oboroti umumiy salmog‘ining yarmidan ko‘pini tashkil etadi¹⁰⁸.

O‘zbekiston Respublikasi bu uchlikning ikki sub’ekti - AQSH va Yaponiya bilan strategik sheriklik va hamkorlik shartnomasini imzolagan. Yevropa Ittifoqi bilan esa 1996 yilda keng miqyosdagi hamkorlikni ko‘zda tutuvchi Sheriklik va Hamkorlik bitimini tuzgan. Bundan tashqari Yevropa Ittifoqi va mamlakatimiz o‘rtasida 20 ga yaqin boshqa turdagi shartnomalar mavjud¹⁰⁹.

Ikki tomonlama munosabatlar ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham madaniy sohalarida rivojlanib bormoqda. Chunonchi 2001 yilga kelib, Yevropa Ittifoqi va respublikamiz o‘rtasidagi savdo aylanmasi 1 mlrd. 57 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.¹¹⁰ Bularning barchasi Yevropa Ittifoqining O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida alohida o‘rin tutishidan darak beradi.

Yevropa Ittifoqi Kengashining 1996 yil iyunda Florensiyada (Italiya) bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida Prezident I. A. Karimov boshchiligidagi O‘zbekiston delegatsiyasi ishtirok etdi. Uchrashuv jarayonida «O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasi-dagi sherikchilik va hamkorlik to‘g‘risida»gi kelishuv imzo-landi. Yevropa

¹⁰⁸ Жўраев Н. Файзуллаев Т. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 3-китоб. тўлдирилган ва қайта нашр. –Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2009.

¹⁰⁹ Мирзаев Т. «Европа - Кавказ - Осиё транспорт йўлаги, Трасеса», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 412-413-бетлар.

¹¹⁰ Ўзбекистон жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох қилиш йўлида. –Т.: «Akademiya», 2005, 369-бет.

Ittifoqida erishilgan yuksak natijalar taj-ribasi davlatlararo boshqa tashkilotlar uchun ham, muayyan bir davlatning taraqqiysi uchun ham foydadan xoli emas.

Shu bois, Prezident I. A. Karimov: «MDHning istiqboli Yevropa Ittifoqi kabi modelning amalga oshirilishida ko‘rinadi... Aynan shu model MDHni jonlantirishi, unga toza havo berishi mumkin. Hamdo‘stlikning har bir a‘zosi o‘zining munosib o‘rnini topa oladigan istiqbol — bu Yevropa Ittifoqi modeli asosida rivojlanish, deb o‘ylayman.

Albatta, demokratiyani rivojlantirish va demokratik jamiyat qurish sohasida ham biz Yevropa Ittifoqi andozalarini qo‘llashimiz kerak bo‘ladi. Bu — mening qat’iy fikrim. Yevropa Ittifoqiga xos demokratik qadriyatlar, inson tafakkuri, ta’lim tizimi, ijtimoiy kafolatlar, aholining ijtimoiy huquqlari — bularning barchasi biz uchun to‘la mos keladi. Men ushbu tizimni ko‘r-ko‘rona ko‘chirib olishni nazarda tutayotganim yo‘q, albatta. Bizning o‘z mentalitetimiz, o‘z muammolarimiz bor va biz bu jihatlarni hisobga olamiz», deb ta’kidlaydi.¹¹¹

Yevropa Ittifoqi tashqi siyosatimizning ustuvor yo‘nalishi ekanligini tushuntirib o‘tirishning hojati bo‘lmasa kerak. Yuksak ishlab chiqarish texnologiyasi, boshqaruvning samarali mexanizmlari, yuksak g‘arbcha madaniyat, demokratiya va inson huquqlarining eng ilg‘or namunalarini o‘zida mujassam etgan Yevropa davlatlari biz uchun manfaatli hamkor bo‘lishiga shubha yo‘q¹¹².

Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston orasidagi aloqalar davlatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq kurtak yoza boshlagan edi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining e’lon qilinishi Yevropa Ittifoqi tashkiloti oldiga yosh davlatni tan olish va u bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatish masalasini qo‘ydi. 1992 yil 15 yanvarda Lissabon va Bryusselda qabul qilingan «o‘n ikkilar» ning qo‘shma Deklaratsiyasi O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini e’tirof etdi. Tez orada

¹¹¹ Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. - Т.: 2005. 366-367-бетлар.

¹¹² Синджански Д. Федеративное будущее Европы. От Европейского Сообщества до Европейского союза. М., 1998.

diplomatik munosabatlar o'rnatildi. 1994 yil noyabr oyida Yevropa Ittifoqining mintaqamizdagi birinchi vakolatxonasi ochildi.¹¹³

O'zbekiston Respublikasi o'rtasida 1993 yil 8 iyun va 1999 yil 15 sentyabrda «To'qimachilik mahsulotlari savdosi bo'yicha bitim», 1996 yil 14 noyabrda narkobiznesga qarshi kurashda hamkorlik qilish to'g'risida bitim va boshqa bir qator shartnomalar imzolandi¹¹⁴.

1996 yil 22 iyunda ikki tomonlama munosabatlar rivojida alohida voqea qayd etildi. Italiyaning qadimiy va go'zal shahri bo'lmish Florensiyaning ko'hna «Fortezza de Bosso» qal'asida bo'lib o'tayotgan Yevropa Ittifoqiga (YI) a'zo davlatlarning navbatdagi Kengashida Yevropa Hamjamiyati va ularga a'zo davlatlar bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida bitim imzolandi.¹¹⁵

Uni O'zbekiston Respublikasi nomidan Prezidentimiz Islom Karimov, YI tomonidan Yevropa Kengashining ijrochi raisi, Italiya Tashqi ishlar vaziri Lamberto Dini va 15 a'zo davlatlarning Tashqi ishlar vazirlari imzoladilar. Bitimni imzolash chog'ida Prezidentimiz ushbu shartnoma YI va mustaqil O'zbekiston munosabatlarida yangi burilish nuqtasi bo'lib xizmat qilishini hamda yosh davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar ochishini ta'kidladi: «O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasida «Sheriklik va Hamkorlik to'g'risidagi bitim»ning imzolanishi, shubhasiz, munosabatlarimizning yangi, hal qiluvchi bosqichga chiqqanini isbotlovchi muhim voqeadir».¹¹⁶

Bitim ikki tomonlama munosabatlarning juda keng ko'lamini qamrab olgan. Unda tomonlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, savdo munosabatlarini tartibga solish,

¹¹³ Ўзбекистон жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох қилиш йўлида. –Т.: «Akademiya», 2005, 369-бет.

¹¹⁴ Синджански Д. Федеративное будущее Европы. От Европейского Сообщества до Европейского союза. М., 1998.

¹¹⁵ Европа Иттифоқи ташкилоти 1992 йил 7 февралда имзоланган Маастрих шартномаси асосида ташкил топган. Унга кадар Европа Ҳамжамияти деб аталган.

¹¹⁶ Ўзбекистон жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох қилиш йўлида. –Т.: «Akademiya», 2005, 371-бет.

ijtimoiy, moliya, ilm-fan, texnologiya va madaniy sohalarda hamkorlik qilish uchun mustahkam asos yaratish o'z aksini topgan.

Shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish sharti bilan 10 yil qilib belgilandi. U 1999 yil 1 iyuldan amalga kirdi¹¹⁷.

Endi «Sheriklik va Hamkorlik to'g'risidagi bitim»da nazarda tutilgan hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari xususida qisqacha to'xtalsak. Bu bitim to'g'risida so'z yuritar ekan prezidentimiz I.A.Karimov «O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasida sheriklik va hamkorlik to'g'risida bitimning mana shunday yuksak anjumanda imzolanishi - shubhasiz, munosabatlarimizning yangi, hal qiluvchi bosqichga chiqqanini isbotlovchi muhim voqeadir.

Biz bu munosabatlarga tashqi siyosatimizning mamlakatimizning jahon hamjamiyati va jahon xo'jaligiga integratsiyalashuviga qaratilgan ustuvor yo'nalishi, deb qaraymiz»¹¹⁸ deb qayd etib o'tganlar.

Savdo munosabatlarini hech qanday to'siqlarsiz rivojlantirish maqsadida har ikki tomon o'zaro bojxona soliqlaridan ozod bo'lishga kelishdilar. «Sheriklik va Hamkorlik to'g'risidagi bitim»ning 10-moddasi bojxona to'lovi va soliqlarini butunlay tugatishni nazarda tutmasa-da, ma'lum muddatga kiritilayotgan tovarlar ustidan import solig'i va cheklovlarni bekor qiladi.

Shuningdek, 3-bo'limning 8-moddasi har ikki tomonga eng katta imtiyoz berilgan millat tamoyilini belgilaydi. Bu prinsip, asosan, bojxona xuquqi, eksport-import to'lovlari, to'lovlar o'tkazish, to'lov usullari kabi sohalarni qamrab oladi¹¹⁹.

11-moddaga binoan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilib, Yevropa Ittifoqi tomonidan import qilinayotgan mahsulotlar, o'z navbatida, Yevropa Ittifoqida ishlab chiqarilib, O'zbekiston Respublikasi tomonidan import qilinayotgan mahsulotlar har qanday miqdoriy cheklovlar va teng ta'sirli choralardan holidir. Shu bilan birga, antidempning choralarini zaruriyat taqozo

¹¹⁷ Стародубов В. П. Супердержавы XXI века: Стратегическое противоборство. М., 2001.

¹¹⁸ Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш - давр талаби. Т. 5. - Т.: 1997. 26-бет.

¹¹⁹ Синджански Д. Федеративное будущее Европы. От Европейского Сообщества до Европейского союза. М., 1998.

qilganda har ikki tomon 13-moddaga asosan qo'llay olishi mumkinligi ham e'tirof etiladi.

Bitimning 43-moddasining 3-bandi iqtisodiy hamkorlikning asosiy sohalarini belgilaydi. Unga ko'ra «hamkorlik ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, inson resurslarini quvvatlash, qishloq xo'jaligi, energetika, transport, turizm, telekommunikatsiya, atrof-muhitni himoya qilish sohalarida kuchaytiriladi»¹²⁰.

55-moddada mavjud quruqlik va havo yo'llari, port va aeroportlarni zamonaviylashtirish, xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalarni rivojlantirish tadbirlari nazarda tutiladi. Shuningdek, TRASEKA quruqlik yo'li, gaz va quvur yo'llari, havo yo'llari qurilishini qisqa muddatda tugallash va ishga tushirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Zero, Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «Markaziy Osiyodagi davlatlarning jo'g'rofiy o'rni mintaqaning transport masalasidagi o'ziga xos muammolarini hal etishga qaratilgan kommunikatsion loyihalarni amalga oshirishni taqozo etadi. Yevropa Ittifoqi qo'llab-quvvatlayotgan hamda yaxshigina moliyaviy bazaga ega bo'lgan ko'p yo'nalishda TRASEKA loyihasini amalga oshirish - Yevropa qit'asiga yo'l ochib beradigan Transkavkaz yo'nalishiga ega bo'lishimizga aniq imkoniyat yaratadi.»¹²¹

Atrof muhitni himoya qilish sohasidagi hamkorlik esa bitimning 43, 44 va 54-moddalarida o'z aksini topgan.

Siyosiy jabhadagi hamkorlik bitimning 68-moddasida ifoda etilgan. Demokratiya va inson huquqlari sohasida har tomonlama va izchillik bilan islohotlar olib borish, jamoat tashkilotlari, nodavlat uyushmalarning mavqeini oshirish kabi masalalarga keng o'rin berilgan.

Madaniy hamkorlik esa 73-moddada bayon etilgan¹²².

¹²⁰ Стародубов В. П. Супердержавы XXI века: Стратегическое противоборство. М., 2001.

¹²¹ Каримов И. А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т. 7. - Т.: 1999. 80-бет.

¹²² Синджански Д. Федеративное будущее Европы. От Европейского Сообщества до Европейского союза. М., 1998.

Giyohvandlik moddalari savdosiga qarshi kurash Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston uchun ham hamisha dolzarb muammolardan biri sanalgan. Ma'lumki Yevropa Ittifoqi unga qarshi kurash maqsadida 1991 yil 5.5 mln. ekyu ajratgan bo'lsa, 1997 yil bu mablag' 54 mln.ga etdi. 2000 yil 14 fevralda bo'lib o'tgan Yevropa kengashi esa 2000-2004 yillarga mo'ljallangan 4 yillik dasturni qabul qildi. Maastrixt Shartnomasining 29-moddasida Yevropa Ittifoqiga narko-biznesga qarshi kurashda bir qator vakolatlar berilganligi ham ma'lum. Shu bois «Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim»ning 71-moddasida bu sohadagi hamkorlikka alohida urg'u beriladi¹²³.

YI va O'zbekiston munosabatlari qabul qilingan bitim asosida o'zining ixtisoslashgan tuzilmalariga ham ega. Bitimning 78-79- moddalariga muvofiq, «Hamkorlik Kengashi» tashkil etilgan bo'lib, vazirliklar darajasidagi bu kengash yilda bir marta yig'iladi va mavjud muammolarni hal etadi. Uning birinchi majlisi 1999 yil 13 sentyabrda bo'lib o'tdi.¹²⁴

Shuningdek, 80-modda asosida faoliyat ko'rsatadigan hamkorlik qo'mitalari kundalik vazifalar bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, vropa Parlamenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi o'rtasida Hamkorlikni ta'minlovchi parlamentlararo qo'mita ham hozirgi kunga qadar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Yevropa Ittifoqi O'zbekiston bilan o'zaro aloqalarda, ayniqsa, iqtisodiy hamkorlikka alohida e'tibor bilan qaramoqda. O'z navbatida 380 mln. km² maydonga ega bu tashkilot ham O'zbekiston eksporti uchun hamisha muhim bozor hisoblanadi. Chunonchi, Yevropa andozasidagi yuksak sifatli sanoat mahsulotlariga mamlakatimizdagi talabni hisobga oladagan bo'lsak, o'zaro manfaatdorlik mezoni savdo aloqalarining rivojlanishi uchun etarli asos bo'la olishini tushinish qiyin emas.

Darxaqikat, Yevropa Ittifoqi — O'zbekiston savdo aloqalari tobora kuchayib bormoqda. Biz bu aloqalarning o'sish salmog'ini quyidagacha ifoda etishimiz

¹²³ Стародубов В. П. Супердержавы XXI века: Стратегическое противоборство. М., 2001.

¹²⁴ Ўзбекистон жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох қилиш йўлида. —Т.: «Akademiya», 2005, 373-бет.

mumkin: YIning O'zbekiston mahsulotlariga importi 1993 yil 417 mln. ekyuni tashkil etgan bo'lsa, 1998 yilda uning xajmi 570 mln. ekyuga etdi. EIning O'zbekistonga eksporti esa 1993 yil 201 mln. ekyuni tashkil etgan bo'lsa, 1998 yilda uning hajmi 780 mln. ekyuga etdi¹²⁵.

Yevropa eksporti mahsulotlarining asosiy qismini elektr jihozlari va mashinalar (32%), Qishloq xo'jaligi va plastik materiallar (22%) tashkil etsa, O'zbekiston eksportining katta ulushi to'qimachilik mahsulotlari (66%) va qimmatbaho materiallardan (28%) iborat¹²⁶.

O'zbekiston o'zining tabiiy zahiralari va intellektual imkoniyatlari bilan ham Yevropa Ittifoqi sarmoyalarini o'ziga jalb qilib kelayotgan diyordir.

3.2. Yevropa ittifoqi tajribasini O'rta Osiyoda qo'llash mumkinmi?

Aholisi kam va iqtisodiyoti kichik bo'lgan davlatlar xalqaro munosabatlarda aksariyat holatlarda katta davlatlarning ta'siri doirasida bo'ladi. Albatta, davlatlararo munosabatlarni manfaatlar belgilaydi. Har bir davlat o'z milliy manfaatlari nuqtai nazaridan boshqa davlatlar bilan munosabatga kirishadi, hamkorlik aloqalarini rivojlantiradi. Manfaatlar, avvalo, teng huquqli, ya'ni boshqa davlatning mustaqilligini va manfaatlarini hurmat qilgan holda, ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplari asosida, har ikki tomonga foydali bo'lgan shartnoma va kelishuvlar orqali yoki ta'sir ko'rsatish orqali ro'yobga chiqariladi. Ta'sir ko'rsatish siyosati odatda kuchli davlatlar tarafidan qo'llaniladi¹²⁷.

Bizningcha ta'sir ko'rsatish siyosatining uch bosqichi mavjud:

1. Istaganini ilgari surish usuli. Bunda bir davlat o'z manfaatlarini qondirish maqsadida boshqa davlatga ma'lum shartnomaga kirish yoki shartlarni bajarish uning ham manfaati ekanlini ko'rsatishga harakat qiladi.

¹²⁵ Синджански Д. Федеративное будущее Европы. От Европейского Сообщества до Европейского союза. М., 1998.

¹²⁶ Стародубов В. П. Супердержавы XXI века: Стратегическое противоборство. М., 2001.

¹²⁷ Синджански Д. Федеративное будущее Европы. От Европейского Сообщества до Европейского союза. М., 1998.

2. Turli iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlar taklif qilish orqali muayyan shartnomalarga kirishishni talab etish usuli. Bu G'arbda "sabzi yondashuvi" deb ataladi.

3. Yuqoridagi ikki "yumshoq kuch ishlatish" usuli qo'l kelmagan taqdirda bevosita qattiq kuch ishlatish, hukumatga bosim o'tkazish, xalqni hukumatga qarshi ruhlantirib, inqilobga sharoit yaratish, OAV va nodavlat notijorat tashkilotlari orqali aholi orasida hukumat noqonuniyligi haqida targ'ibotini olib borish, bevosita urush e'lon qilib bosib olish kabi yo'llar bilan amalga oshiriladi¹²⁸.

Bu G'arbda "tayoq yondashuvi" deb ataladi. Bu holat bugun Rossiya va Ukraina davlatlari munosabatlarida yaqqol ko'zga tashlandi.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun xalqaro munosabatlardagi eng katta manfaat bu ular mustaqilligining hurmat qilinishidir. Manfaatning ko'ngli bo'lmaydi, balki siyosiy kuchlarning mezoni munosabatlarning asosini belgilaydi.

Mustaqilligimiz biz uchun eng qadrli boyligimiz ekan kuchli bo'lishga intilishimiz zarur. Aks holda, XIX-XX asrda rus va ingliz imperiyalarining "katta o'yin"i qurboniga qanday aylangan bo'lsak, XXI asrda ham Rossiya, Xitoy, AQSH, kelgusida Hindiston manfaatlari to'qnashuvi natijasida, avvalo, mustaqilligimiz, qolaversa milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimiz boy berilishi xavfini hech kim inkor eta olmaydi¹²⁹.

Davlatning qudrati qanday o'lchanadi? Qaysi davlatlar qudratli ta'sir ko'rsatish salohiyatiga ega? Qaysi davlatlar xalqaro munosabatlarda o'z manfaatlarini himoya qilishda ustunliklarga ega va bu ustunliklar nimada?

Xalqaro munosabatlarda kuchli davlatlarning ikki xil ko'rinishi bo'ladi: muayyan mintaqa davlatlariga kuch ko'rsata oladigan va boshqa qit'a davlatlariga ham ta'sirini o'tkaza oladigan global qudratga ega davlatlar. Davlatlarning qudratini o'lchashda juda ko'p omillar, jumladan, davlatning urushlar tarixi, geosiyosiy joylashuvi, iqtisodiy, harbiy salohiyati, aholining o'sish sur'ati kabi bir

¹²⁸ Стародубов В. П. Супердержавы XXI века: Стратегическое противоборство. М., 2001.

¹²⁹ Синджански Д. Федеративное будущее Европы. От Европейского Сообщества до Европейского союза. М., 1998.

qancha ko'rsatkichlar inobatga olinadi. Masalan, Markaziy Osiyo mintaqasida potensial manfaatlari bo'lgan uch davlat — AQSH, Xitoy va Rossiyaning umumiy qudratini baholashda uchta asosiy omilga, ya'ni iqtisodiy, harbiy va aholisining soniga e'tiboringizni qaratmoqchiman:

Markaziy Osiyo mustaqil davlatlarining (O'zbekiston (32.1 million), Qozog'iston (17.7 million), Qirg'iziston (5.6 million), Turkmaniston (5.1 million), Tojikiston (8 million)) umumiy aholisi soni **66 millionga** yaqin¹³⁰. Bu mintaqada katta rol o'ynaydigan Rossiya aholisining yarmiga ham teng emas. Markaziy Osiyoning umumiy yalpi ichki mahsuloti **300 milliard** atrofida bo'lib, Hindistonnikidan 6, Rossiyanikidan 7 barobar kam. Ushbu davlatlar byudjetida mudofaa xarajatlari yalpi ichki mahsulotning 2 foizi, ya'ni **5 milliard** AQSH dollariga ham etmaydi¹³¹.

AQSH, Xitoy va Rossiyaning Markaziy Osiyodagi manfaatlari

AQSH:

- AQSHning Markaziy Osiyodagi birmuncha sust siyosati 2001 yil sentyabr voqealaridan so'ng tubdan o'zgardi. Afg'oniston borasida strategik hamkorlik harbiy yo'nalish bilan cheklanib qolmadi. Mintaqa davlatlarining iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy demokratik yangilanishiga ko'maklashish ushbu mintaqadagi AQSH siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi;

- AQSH Markaziy Osiyo davlatlari bilan har qanday iqtisodiy hamkorlikka qo'l urishi yoki AQSH tarafidan ko'rsatiladigan iqtisodiy yordam asosida inson huquqlari va demokratik islohotlarga alohida urg'u beradi;

- Rossiya va Xitoy ta'siridan xoli iqtisodiy barqaror va xavfsiz mintaqa yaratish;

- AQSH boshchiligidagi xalqaro kuchlarning joriy yilda Afg'onistonni tark etishi ko'zda tutilayotgan bo'lsa-da, Afg'oniston xavfsizligi va taraqqiyoti AQSH tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolaveradi. Buning uchun esa, albatta, Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik bo'lishi shart;

¹³⁰ Стародубов В. П. Супердержавы XXI века: Стратегическое противоборство. М., 2001.

¹³¹ Россия и Совет Европы: перспективы взаимодействия. М., 2001.

- AQSHning 2005-2006 yillardagi “rahbar o‘zgartirish” siyosati, demokratik islohotlarni tashqaridan kuch ishlatish orqali targ‘ib qilishda muvaffaqiyatsiz urinishi yangicha yondashuvni o‘rtaga qo‘ydi: a) demokratik islohotlarnig nodavlat tashkilotlar orqali targ‘ib qilish, inson huquqlari masalasini tashqi siyosatning markazida saqlab turish; b) e’tiborni ko‘proq mintaqadagi xavfsizlikka qaratish; c) agressiv siyosat demokratlashuv jarayonini tezlashtirmay, balki mintaqada barqarorlikka putur etkazib qo‘yishi oqibatida Rossiyaning faol siyosatiga yo‘l ochishini anglab etish;¹³²

- AQSH mintaqada masofaviy siyosat olib boradi. Mintaqadagi manfaatlari Rossiyaning “ta’sir zonalari” yoki Xitoyning “energiya manbai” siyosatiga o‘xshamaydi;

- AQSHning “Yangi Ipak yo‘li” strategiyasi AQSH va rivojlanayotgan Janubiy Osiyo davlatlari bilan Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan. AQSHning mintaq bo‘yicha yangi siyosati shu strategik hamkorlik negizida quriladi.

Xitoy:

- Xitoyning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan siyosatining asosida, avvalo, xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik hamda energetika yotadi;

- Xavfsizlik: a) chegaradosh Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligi; b) Xitoydagi separatistik va mustaqillikka qaratilgan turli harakatlarga qarshi kurashda Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik;¹³³

- Xitoyning demokratik islohotlar va inson huquqlari sohasida hech qanday talablari yo‘q. Balki iqtisodiy hamkorlikda xavfsiz mintaq va progressiv hukumatlar bilan munosabat qulayroq;

- Xitoy uchun mudofa sohasida hamkorlik muhim. Bu borada Chegara davlatlari o‘rtasida harbiy ishonchni kuchaytirish to‘g‘risida shartnoma Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasida imzolangan;

¹³² Развитие интеграционных процессов в Европе и России. М., 1996.

¹³³ Синджански Д. Федеративное будущее Европы. От Европейского Сообщества до Европейского союза. М., 1998.

- Xitoy, Rossiya, O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Qozog‘istonni ichiga olgan Shanxay klubidan asosiy maqsad ham terrorizmga qarshi kurash, mustaqil davlatlarning chegara va xavfsizligini saqlashga qaratilgan;
- Shanxay hamkorlik tashkiloti Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy, siyosiy va harbiy yo‘nalishlarda hamkorlik uchun asos solgan bo‘lsa-da, u, asosan, Xitoyning iqtisodiy manfaatlari uchun samarali xizmat qilib kelmoqda;
- Xitoy o‘z ichki bozorini ta‘minlash maqsadida Markaziy Osiyo davlatlari bilan kuchli iqtisodiy hamkorlik aloqalarini mustahkamlab bormoqda;
- Xitoy ham AQSH singari Markaziy Osiyo davlatlarining kuchli davlatlarning ta‘siridan xoli, siyosiy barqaror va iqtisodiy rivojlangan mintaqaga bo‘lib qolishidan manfaatdor;
- Xitoy AQSHning mintaqada demokratiyani yoyish siyosatiga qarshi bo‘lib, u mintaqada davlatlarining G‘arb manfaatlariga xayrixoh bo‘lishiga ko‘p ham moyillik bildirmaydi. G‘arbparast hukumatlar uning ham iqtisodiy, ham siyosiy manfaatlari uchun to‘siq bo‘lishi mumkin;
- Xitoy 2014 yildan keyin Markaziy Osiyo mintaqasida saxiy investor sifatida faol iqtisodiy rol o‘ynaydi;¹³⁴

Rossiya:

- XIX asrda Rossiyaning Buyuk Britaniya bilan “Katta o‘yin”i aynan Markaziy Osiyo mintaqasida borgan edi. XXI asrda esa u AQSH va Xitoy harakatlarini mintaqada cheklash maqsadida faol siyosat olib borishi tabiiy. Mintaqaga nisbatan “ta‘sir zonasi” atamasini qo‘llashi ham buning yaqqol isbotidir.¹³⁵
- Rossiya dunyo siyosatida Sovet Ittifoqining asosiy merosxo‘ri sifatida o‘zining eski mavqeini tiklashga harakat qiladi. Eski qudratiga ega bo‘lishi bevosita Sharqiy Yevropa (Ukraina, Belarus, Moldova), Janubiy Kavkaz (Ozarboyjon va Armaniston) va Markaziy Osiyo mintaqasiga ta‘sir o‘tkazish, bu davlatlarni ta‘sir doirasida ushlab turishi bilan bog‘liqdir.

¹³⁴ Саидкасимова Б. Магнетизм европейской интеграции // *Хукук-Право-Law*. - 2004. - №2. 65-бет.

¹³⁵ Развитие интеграционных процессов в Европе и России. М., 1996.

- Sovet Ittifoqi qulashi natijasida MDHning tashkil etilishidan maqsad G‘arb va AQSH uchun mintaqada geosiyosiy bo‘shliq yaralishining oldini olishdan iborat edi. Rossiya bunday tashkilotlarni, jumladan, Yevrosiyo iqtisodiy hamkorlik, Erkin iqtisodiy zonani so‘zda teng huquqli, amalda esa o‘z manfaatlariga xizmat qilish va ta’sir ko‘rsatish vositalari sifatida ishlatgan¹³⁶.

- Rossiya uchun ham AQSH va Xitoy kabi Markaziy Osiyoda tinchlik va siyosiy barqaror muhit bo‘lishi juda muhim.

- Rossiya AQSHning Markaziy Osiyo davlatlarida faol siyosat yuritishidan cho‘chiydi. Sharqiy Yevropada NATO ta’siri kuchayishi Rossiyani qanchalik xavotirga solsa, Markaziy Osiyoda AQSH harbiy bazasi va G‘arbgga moyil siyosiy rahbarlarning hukumatga kelishi, mintaqada AQSH “ko‘magi” ostida demokratik islohotlarning amalga oshishi Rossiya manfaatlariga jiddiy zarar beradi;

- Rossiya Markaziy Osiyo davlatlarining siyosiy Islomdan xoli hudud bo‘lishidan manfaatdor. Rossiya uchun dunyoviy avtoritar tuzum islomiy yoki g‘arbcha demokratlashgan davlatdan ko‘ra yaxshiroq.

- Rossiyaga ko‘ra, AQSHning rangli inqiloblari mintaqada xaos yaratadi;

- Afg‘onistondan oqib kelayotgan narkotik moddalarni kamaytirish, terrorizmga qarshi kurash, diniy mutaassiblar hukumatga kelishining oldini olish Rossiyaning Markaziy Osiyo bo‘yicha siyosatida ustuvor bo‘lib qolaveradi¹³⁷.

Markaziy Osiyo mintaqasida faol siyosat yuritayotgan AQSH, Rossiya va Xitoy bilan munosabatlarda muvozanat saqlab turish o‘ta nozik masala bo‘lgani uchun ham Markaziy Osiyo hukumatlari u yoki bu yo‘nalishda konkret qadam tashlamasdan, balki xavfsizlik va barqarorlikka ko‘proq e’tibor qaratib keladi. Markaziy Osiyo davlatlari xalqaro munosabatlarda teng huquqli sub’ekt sifatida o‘z milliy manfaatlarini himoya qila olishi, mintaqadagi faol va qudratli davlatlar bilan munosabatda muvozanatni yo‘qotmaslik uchun ham tashqi siyosatning aniq yo‘nalishlarini belgilab olishi lozim. Buning uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish talab qilinadi.

¹³⁶ Россия и Совет Европы: перспективы взаимодействия. М., 2001.

¹³⁷ Саидкасимова Б. Магнетизм европейской интеграции // *Хукук-Право-Law*. - 2004. - №2. 65-бет.

Birinchidan, Markaziy Osiyo davlatlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy sohalarda tanlagan yo‘li demokratik, ochiq bozor, insonparvarlik va inson huquqlarining hurmat qilinishi tamoyillariga asoslangan. Tanlangan yo‘l o‘ziga xos xarakterga ega bo‘lgani bilan ochiq jamiyat va demokratik davlatlarning bu boradagi prinsiplariga muvofiqdir. Mintaqa davlatlari qonunlarda belgilangan taomillarini hayotga tatbiq qilish uchun AQSH va Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan faol hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi va oradagi turli qarama-qarshiliklarni muzokaralar orqali kelishgan holda amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir¹³⁸.

Ikkinchidan, AQSH mintaqa davlatlari ichki ishlariga aralashishdan voz kechishi, iqtisodiy va harbiy sanksiyalar va turli siyosiy va ijtimoiy vositalar orqali islohotlarni majburiy joriy qilish usulidan voz kechishi kerak. Balki mintaqadagi har bir davlat hukumati bilan faol, konstruktiv va tavsiyaviy xarakterdagi muloqotini jonlantirishi lozim. “Inqilob qil, demokratiya olib kel” (Ukraina, Gruziya, Qirg‘iziston) mazmunidagi demokratiyani import qilish siyosati mintaqada xaosga yo‘l ochishi, oqibatda, islomiy guruhlarining hukumatga kelishi, Rossiya va Xitoyning mintaqada “tartib o‘rnatish”ga yo‘nalgan siyosatining faollashishi xavfi mavjudligini tan olishi lozim¹³⁹.

Uchinchidan, Markaziy Osiyo davlatlarining AQSH bilan ochiq va faol munosabatlariga to‘g‘onoq bo‘lgan omillardan biri ham AQSHning ushbu mintaqa mamlakatlari ichki siyosatiga aralashuvi hukumatlardan u yoki bu istaklarni talab qilishidir. Aslida Markaziy Osiyo davlatlari tanlagan yo‘lida AQSHning maslahat va yordamiga ehtiyoji katta. Inson huquqlari, demokratik siyosiy islohotlar, muxolif partiyalar va nodavlat tashkilotlarning erkin faoliyati kafolati, OAV erkinligi shular jumlasidandir. Markaziy Osiyo davlatlari bu borada aniq dasturlar ishlab chiqishi hamda bu yo‘lda AQSHning tajribasidan foydalanishi maqsadga muvofiqdir¹⁴⁰.

¹³⁸ Развитие интеграционных процессов в Европе и России. М., 1996.

¹³⁹ Россия и основные институты безопасности в Европе: вступая в XXI век М., 2000.

¹⁴⁰ Развитие интеграционных процессов в Европе и России. М., 1996.

To'rtinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari o'z manfaatlarini himoya qiladigan, AQSH hukumati va Kongressiga mintaqa mamlakatlarining o'ziga xos jihatlarini turli tadqiqot faoliyati orqali tushuntiradigan lobbichilik faoliyatini tashkil qilishi hamda jonlantirishi lozim.

Beshinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari turli grantlar tashkil qilish orqali yoshlarni Yevropa Ittifoqi va AQSHga o'qishga jo'natishi, olimlar va tadqiqotchilar, turli universitet va ilm maskanlari o'rasida keng aloqalarni yo'lga qo'yishi kerak¹⁴¹.

Oltinchidan, AQSH Ikkinchi jahon urushi oqibatida Yevropa mamlakatlarida Sovet ittifoqi ta'sirini kamaytirish maqsadida Marshal rejasini ishlab chiqqan edi. Mazkur rejaga binoan, Jahon urushi oqibatida iqtisodiy tanazzulga uchragan Yevropa davlatlariga iqtisodiy yordam berilgan.

Amerika iqtisodiy ko'mak orqali Sovet Ittifoqining mintaqada ta'sirini kamaytirish, Sovet Ittifoqiga qarshi kuchli Yevropa davlatlari ittifoqi qurish orqali siyosiy va harbiy blok tuzish, AQSH uchun savdo bozorini yaratish, Yevropa mamlakatlari o'rtasida chegarasiz savdo aylanmasi uchun shart-sharoit yaratish, siyosiy tizimni tubdan isloh qilish kabi maqsadlarni ko'zlagan. Marshal rejasi Yevropa Ittifoqining tuzilishi uchun asosiy poydevor bo'ldi.

Hozirda Yevropa Ittifoqi dunyodagi eng katta iqtisodiyotga ega bo'lib, dunyo aholisining 8 foizi Ittifoqning 28 mamlakatida istiqomat qiladi. Yevropa Ittifoqi dunyo boyligining 30 foizini tasarruf etadi. Bir so'z bilan aytganda, bu mazkur rejaning Yevropada muvaffaqiyati edi.

Sovet Ittifoqidan ajrab chiqqan Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlar uchun ham iqtisodiy tiklanish rejasini ishlab chiqish AQSH tashqi siyosatining ajralmas qismiga aylanishi kerak. Buning uchun tashabbus Markaziy Osiyo davlatlari tarafidan qo'yilishi kerak. AQSHning ikki raqobatchisi – Rossiya va Xitoyga qarshi Markaziy Osiyo ittifoqini tuzishga ko'maklashish Markaziy Osiyo hamda Amerika davlati uchun manfaatlidir¹⁴².

¹⁴¹ Россия и основные институты безопасности в Европе: вступая в XXI век М., 2000.

¹⁴² Россия и основные институты безопасности в Европе: вступая в XXI век М., 2000.

Buning uchun mintaqada bu Ittifoqning platformasi mavjud. Masalan, GUAAM (Gruziya, Ukraina, O'zbekiston, Ozarboyjon va Moldova) guruhiga o'xshash Rossiya ta'sirini kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy hamkorlik tashkilotini tuzish va jonlantirish lozim hamda AQSH va Yevropa ittifoqi tarafidan qo'llab-quvvatlangan «Yangi Ipak Yo'li» loyihasi Xitoydan Markaziy Osiyo orqali Yevropaga Rossiyaning ta'siridan xoli savdo aylanmasini joriy etish.

Ettinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari mintaqada turli hududiy muammolarni diplomatik yo'llar bilan hal qilishi juda muhimdir. O'zbekistonning Tojikiston va Turkmaniston bilan suv, gaz ta'minoti masalasi, Qirg'iziston bilan etnik muammolarni tinch va o'zaro murosa yo'li bilan hal qilish o'ta muhimdir.

Rossiyaning Yevrosiyo iqtisodiy hamkorligi ortida Putinning neoimperialistik g'oyalari yotgani bugun hech kimga sir emas. Putin hukumati ochiq bozor va demokratik islohotlar yo'lidan borish o'rniga, markazlashgan davlat va kuchli nazorat qilingan iqtisodiyot yo'lini tanladi. Bu esa Markaziy Osiyo davlatlarining kelajakdagi maqsadlari bilan tubdan farq qiladi. Markaziy Osiyo uchun tinch, barqaror va demokratik davlat va bozor iqtisodiga asoslangan mustaqil va milliy davlatchilik muhimdir.

O'zbekiston - Yevropa Ittifoqi: o'zaro hamkorlikni jadallashtirish yo'lida

Ana shunday hamkor tashkilotlar sirasiga Yevropa Ittifoqini ham kiritish mumkin. Zero, mamlakatimiz bilan mazkur tashkilot o'rtasidagi munosabatlarda siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy va madaniy-insonparvarlik aloqalari hamda mintaqaviy va ekologik xavfsizlikni ta'minlash kabi masalalar ustuvor yo'nalishlardandir.

O'zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlarining asosi 1992 yil 15 aprelda O'zbekiston Respublikasi hukumati va Yevropa hamjamiyatlari komissiyasi (YeHK) o'rtasida O'zaro anglashuv to'g'risidagi memorandumning imzolanishi orqali yaratildi. 1994 yil 16 noyabrda tomonlar o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi.

1996 yil aprel oyida Yevropa Ittifoqi Komissari X.Van den Bruk O'zbekistonga tashrif buyurdi va mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov tomonidan qabul qilindi.

1996 yil iyun oyida Yevropa Ittifoqining Florensiyada bo'lib o'tgan davlat rahbarlari darajasidagi sammiti chog'ida O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasida o'zaro siyosiy muloqot yo'lga qo'yilib, Sherikchilik va hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolandi. Mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi aloqalarining har tamonlama rivojlanishida muhim huquqiy poydevor yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1996 yil noyabrda Belgiyaga amalga oshirgan rasmiy tashrifi doirasida Yevropa Hamjamiyatlari Komissari J.Santer va Yevroparlament raisi K.Xensh bilan uchrashuvlar o'tkazildi.

2010 yilning 15-16 noyabr kunlari Yevropa Ittifoqining tarqqiyot bo'yicha komissari A.Piyebalgs rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldi. Tashrif asnosida u Prezident Islom Karimov bilan muzokaralar o'tkazdi.

2011 yil 24 yanvarda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning Bryusselga amalga oshirgan rasmiy tashrifi tomonlar o'rtasidagi siyosiy muloqotni mustahkamlash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Tashrif chog'ida Yevropa Ittifoqi O'zbekiston Respublikasi bilan turli sohalarda teng va o'zaro sheriklikka asoslangan hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdor ekanini namoyish etdi.

Tashrif doirasida Yevropa Ittifoqi Komissiyasi Prezidenti J.M.Barrozo va Yevropa Ittifoqining energetika bo'yicha komissari G.Ettinger bilan muzokaralar o'tkazildi.

Muzokaralar chog'ida Yevropa Hamjamiyatlari komissiyasi rahbari O'zbekistonning dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallagan iqtisodiy o'sish sur'atlariga alohida urg'u berdi. Shuningdek, u 2010 yil 12 noyabrda Prezident Islom Karimov tomonidan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida bayon etilgan "mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada

chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” Yevropada katta qiziqish bilan qarshi olinganini qayd etdi.

Yevropa Ittifoqi O'rta Osiyodagi transchegaraviy daryolarnig suv manbalaridan foydalanish borasida pragmatik yondashuv tarafdori bo'lib, manfaatdor tomonlarning suv va energetika masalalarida o'zaro hamjihatlikda hamkorlik qilish bo'yicha ekologik muvozanatni saqlash hamda transchegaraviy daryolarning suv resurslaridan adolatli va oqilona foydalanishga doir barqaror va oshkora mexanizmlarni ishlab chiqishini qo'llab-quvvatlaydi.

Tashrif davomida O'zbekistonda Yevropa Ittifoqi Delegatsiyasini ta'sis etish to'g'risidagi bitim, O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasida Energetika sohasida hamkorlik to'g'risidagi memorandum hamda Yevropa Ittifoqi komissiyasining 2011-2013 yillarga mo'ljallangan texnik yordam ko'rsatish bo'yicha indikativ loyihalarini amalga oshirish to'g'risidagi memorandum imzolandi.

Tashrif yakunlariga ko'ra aytish mumkinki, u O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi aloqalarning ulkan salohiyatini ochishda keng imkoniyatlar yaratadi hamda ustuvor loyihalarni amalga oshirish uchun yuqori texnologiyalarni yetkazib berish, infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar tayyorlash va ilmiy-texnikaviy aloqalarni kengaytirish orqali Yevropa Ittifoqining mamlakatimizdagi iqtisodiy islohatlar va tizimli o'zgarishlar jarayonida ishtirok etishga tayyor ekanini ko'rsatadi.

O'zaro munosabatlarning shartnomaviy-huquqiy asosi, yuqorida ta'kidlangan ikki tomonlama hujjatlar bilan bir qatorda Sherikchilik va hamkorlik to'g'risidagi hamda Atom energiyasidan tinch maqsadda foydalanish sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitimlarni ham o'z ichiga oladi.

Sherikchilik va hamkorlik to'g'risidagi bitim doirasida hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi beshta qo'shma muassasa faoliyat yuritib kelmoqda. Ya'ni, Hamkorlik kegashi, Hamkorlik qo'mitasi, Parlamentlararo hamkorlik qo'mitasi, Savdo va

investitsiyalar bo'yicha yordamchi qo'mita, Adliya, ichki ishlar, inson huquqlari va boshqa masalalar bo'yicha yordamchi qo'mita shular jumlasidandir.

Mazkur muassasalarning vazifalari tegishli sohalar bo'yicha munosabatlarning amaldagi holatini muntazam ravishda muhokama qilib borish, ularni yanada rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohatlar va Yevropa Ittifoqidagi ichki siyosiy vaziyat bilan bog'liq masalalar, O'rta Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash va hamkorlik qilish, shuningdek, har ikkala tomonning manfaatlariga mos keladigan xalqaro masalalar bo'yicha fikr almashishdan iboratdir.

Yevropa Ittifoqi O'zbekistonning muhim savdo-iqtisodiy sherigi bo'lib, mamlakatimizning tashqi savdo aloqalarida ikkinchi o'rinni egallaydi. 2010 yil yakuniga ko'ra, O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi hajmi 1965,0 million AQSh dollarini tashkil etdi. Shu jumladan, eksport - 547,8 million AQSh dollari, import - 1418,0 million AQSh dollaridan iborat bo'ladi. O'zaro tovar aylanmasi hajmi 2009 yilgi ko'rsatkich bilan qiyoslaganda, 1,2 foizga o'sdi. Shu bilan birga, ikki tomonlama savdo-sotiqni kengaytirish uchun hali ishga solinmagan ulkan salohiyat mavjud.

Yurtimizda Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlardan kelgan sheriklar ishtirokida 821 korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan 612 tasi qo'shma korxona bo'lib, 209 tasi 100 foizlik Yevropa mablag'i asosida ish olib borayotir. O'zbekiston Yevropa Ittifoqi tomonidan xorijiy mamlakatlar uchun yaratilgan eng ko'p qulaylik tizimidan foydalanish imkoniyatiga ega davlatlar qatoriga kiradi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga ko'maklashish maqsadida Yevropa Ittifoqi 1992 yildan buyon respublikamizda Yevropa Hamjamiyatlari komissiyasining texnikaviy yordam loyihalarini amalga oshirib kelmoqda. O'zbekiston mazkur hamkorlik doirasida Yevropa Ittifoqining chegaralar xavfsizligini ta'minlashga ixtisoslashtirilgan BOMKA, narkotik moddalarga qarshi kurashishga yo'naltirilgan KADAP, transport masalalari bo'yicha ixtisoslashtirilgan TRASEKA, energetika masalalari bo'yicha INOGEYT kabi mintaqaviy dasturlarida, shuningdek, ta'lim yo'nalishidagi TEMPUS va ilm-

fan yo'nalishidagi Yettinchi doiraviy dasturi kabi ixtisoslashgan loyihalarida faol ishtirok etadi.

Yevropa Ittifoqi tashabbusi bilan 2004 yilda tashkil topgan “Yevropa Ittifoqi - Markaziy Osiyo” mintaqalararo muloqoti doirasida tashqi ishlar vazirlari darajasida to'rtta uchrashuv o'tkazildi. Ularda 2007 yil 21 iyunda Bryusselda Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar va hukumatlar rahbarlari tomonidan tasdiqlangan “Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo: yangi sheriklik strategiyasi” (Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyoga oid strategiyasi) nomli konseptual hujjatni ishlab chiqish va amalga oshirish masalalari muhokama qilindi. Mazkur hujjatning taqdimoti 2007 yil 30 iyun kuni Berlinda o'tkazildi. Shuningdek, Parij va Bryusselda “Yevropa Ittifoqi - Markaziy Osiyo” tashqi ishlar vazirlari darajasidagi forumlar tashkillashtirilib, ularda mintaqalararo hamkorlikka oid dolzarb masalalar muhokama qilindi.

O'zbekistonning geografik joylashuvi va geosiyosiy ahamiyati, barqarorligi hamda so'nggi yillarda erishgan iqtisodiy taraqqiyotining yuqori sur'atini inobatga olgan holda, Yevropa Ittifoqi ushbu Strategiyani to'laqonli amalga oshirishda mamlakatimizga mintaqadagi ishonchli va uzoq muddatli hamkor sifatida qaraydi.

2011-2013 yillar mobaynida Yevropa Hamjamiyatlari komissiyasi yurtimiz hamda butun mintaqaga qishloq xo'jaligi va qishloq joylarni, ikki tomonlama savdo-sotiq, kichik va o'rta biznes, energetika, atrof-muhit, fan va ta'lim kabi sohalarni rivojlantirish, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, sud-huquq tizimini isloh qilish, chegaralar va bojxona xavsizligini ta'minlash masalalarini hal etishda ko'mak berishni rejalashtirmoqda.

2011 yil 7 aprel kuni tashqi ishlar vazirlari darajasida Toshkentda o'tkaziladigan “Yevropa Ittifoqi - Markaziy Osiyo” uchrashuvi Yevropa Ittifoqi va O'rta Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi mintaqalararo siyosiy muloqotni yanada jadallashtirish va mustahkamlash jarayonida navbatdagi muhim qadam bo'lib xizmat qiladi. Unda Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik bo'yicha yangi strategiyasining bugungi kungacha bo'lgan holati, mintaq davlatlari hamda Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlarning istiqbollari

va boshqa bir qator o'zaro manfaatli dolzarb masalalar muhokama etilishi ko'zda tutilmoqda.

Xulosa.

Yevropani birlashtirish g'oyasi ikkinchi jahon urushidan so'ng aniqrog'i, 1946 yil 16 sentyabrda Syurix universitetida U.Churchil so'zlagan nutqda Amerika Qo'shma shtatlariga o'xshagan «Yevropa qo'shma shtatlari»ni barpo etish lozimligi e'lon qilinganidan keyin yana jonlandi. Natijada 1949 yilda Yevropa kengashi tashkiloti tuzildi va u bugungi kunga qadar faoliyat yuritmoqda;

Yevropa integratsiyasi va Yevropa hamjamiyatlari (Yevropa iqtisodiy hamjamiyati, atom energiyasi bo'yicha Yevropa hamjamiyati) nomini olgan davlatlararo tuzilmalarni shakllanishi jarayonini ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa uyushmasi (European Coal and Steel community) - G'arbiy Yevropa mamlakatlarining davlat monopolistik tashkilotining tuzilishi boshlab berdi. Garchi, urushdan keyingi Yevropa integratsiyasiga turli davlatlarning iqtisodiy, siyosiy jihatdan tengsizligi, Germaniyaga nisbatan ishonchsizlik, shuningdek birlashgan Yevropa etakchilik uchun ingliz-fransuz raqobati halaqit bergan bo'lsada, jarayon to'xtab qolmadi;

G'arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasini «Marshal rejasi» ishtirokchilari tomonidan 1948 yilda tuzilgan Yevropa iqtisodiy hamkorligi tashkiloti boshlab berdi. Bu tashkilot muvofiqlashtiruvchilik vazifasini bajardi;

1949 yilda Yevropada birinchi siyosiy tashkilot - Yevropa kengashi tuzilgan bo'lsada, uning qarorlari tavsiya xarakteriga ega edi xolos, uning keyingi faoliyati «sovuq urush» ta'sirida sustlashib qoldi;

XX asrning 60-70 yillarida G'arbiy Yevropa integratsiyasi jarayoni davom etdi va rivojlandi;

1973 yilda neft narxining keskin ko'tarilishi G'arbiy Yevropada iqtisodiy rivojlanishning pasayishiga olib keldi. Biroq bu xol Yevropa hamjamiyati a'zolarining muqobil energiya manbalarini qidirish, tejamkor texnologiyalarni qo'llashga majbur etdi;

Qo'shilish shartnomasi 1965 yil 8 aprelda Bryussellda imzolandi va 1967 yil 1 iyuldan kuchga kirdi. U uch Yevropa hamjamiyatining yagona komissiya va yagona kengashini yuzaga keltirdi;

Rim shartnomasi - Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini tuzish to'g'risidagi shartnoma 1957 yil 25 martda imzolanib, 1958 yil 1 yanvardan kuchga kirgan. Yevropaning Atom energiyasi bo'yicha hamjamiyati (Yevroatom) ni tuzish to'g'risidagi shartnoma huddi shu vaqtda imzolangan bo'lib, bu ikki shartnoma birgalikda Rim shartnomalari nomini olgan;

O'zbekiston mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab Yevropa bilan hamkorlikni o'z tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab oldi. O'zbekiston bilan Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlar ikki tomonlama va 1999 yilning 1 iyulidan kuchga kirgan O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan ikki tomonlama muloqoti faol xarakterga ega bo'lib, u 5 asosiy qo'shma organ doirasida amalga oshirilmoqda: hamkorlik kengashi, hamkorlik qo'mitasi, Parlament hamkorligi qo'mitasi, Savdo va investitsiyalar bo'yicha quyi qo'mita hamda Adliya, ichki ishlar va boshqa masalalar bo'yicha quyi qo'mita;

2011 yil 24 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Bryusselga tashrifi bo'lib o'tdi. Tashrif doirasida Yevropa Komissiyasi prezidenti J.M.Barroso va Yevropa Ittifoqining energetika masalalari bo'yicha komissari G.Ettinger bilan uchrashuvlar o'tkazildi;

O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi aloqalar 1992 yilning 15 aprelida O'zbekiston Respublikasi hukumati va Yevropa Ittifoqi hamjamiyatlari Komissiyasi o'rtasida Memorandum imzolanishi bilan o'rnatildi, 1994 yilning 16 noyabrida esa ikki tomon o'rtasida diplomatik munosabatlar yo'lga qo'yildi. 1995 yili Bryusselda YI huzurida O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonasi faoliyat ko'rsata boshladi 2007 yilda YIning Markaziy Osiyo bo'yicha uzoq muddatli strategiyasi ishlab chiqildi. Sloveniya raislik qilgan 2008 yilning 1 yanvaridan o'lim jazosining bekor qilishi va qamokqa olish bo'yicha sanksiya berish huquqi sudlarga o'tganligi Yevropa Ittifoqi tomonidan rasman e'tirof etildi;

2010 yil 15 noyabrda mamlakatimizga Yevropa Ittifoqi Komissiyasining Taraqqiyot bo'yicha komissari A. Piebalgs rahbarligida delegatsiya tashrif buyurib,

Prezident Islom Karimov uchrashuv chog'ida A.Piebalgs Yevropa O'zbekiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor ekanini ta'kidladi;

2004 yilda YI tashabbusi bilan tasis etilgan Yevropa Ittifoqi-Markaziy Osiyo mintaqalararo muloqoti doirasida 2011 yil 7 aprelda Toshkentda tashqi ishlar vazirlari darajasidagi navbatdagi «Yevropa Ittifoqi-Markaziy Osiyo» uchrashuvi bo'lib o'tdi. YIning O'zbekiston mahsulotlariga importi 1993 yil 417 mln. ekyuni tashkil etgan bo'lsa, 1998 yilda uning xajmi 570 mln. ekyuga etdi. YIning O'zbekistonga eksporti esa 1993 yil 201 mln. ekyuni tashkil etgan bo'lsa, 1998 yilda uning hajmi 780 mln. ekyuga etdi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И. А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. Т. 7. - Т.: 1999.
2. Каримов И. А. Жаҳон инкирозининг оқибатларини енгиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари. Т. 18. - Т.: 2010.
3. Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. - Т.: 2005.
4. Каримов И. А. Ҳавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. - Т.: 1998.
5. Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш - давр талаби. Т. 5. - Т.: 1997.
6. Антонович И. И. Современный капитализм — социодинамика власти. М., 1990.
7. Арах М. Европейский союз: видение политического объединения. М., 1998.
8. Аттали Ж. На пороге нового тысячелетия. М., 1993.
9. Базарбаев Б. В поисках истинного либерализма. М., 1994.
10. Бешлосс М., Тэлбот С. На самом высшем уровне. Закулисная история окончания холодной войны. М., 1994.
11. Борхардт К. Д. Азбука права Европейского сообщества. М., 1994.
12. Бугалин А. Вглядываясь в XXI век: Европейский Союз и СНГ. М., 1998.
13. Век XX: политика, люди, судьбы. Авт.сост. Ш.Эргашев, Т.Бобоматов, Н.Турсунов. –Т.: «Шарк», 2007
14. Глухарев Л. И. Общественные процессы и гуманитарная Европа. М., 1995.
15. Гончарова Т. Человечество на пороге XXI века. Взгляды зарубежных политологов. М., 1997.
16. Европа и Россия: проблемы южного направления. М., 1999.

17. Европа на пороге XXI века: ренессанс или упадок? М., 1998.
18. Европейская интеграция, Большая Гуманистическая Европа и культура. М., 1998.
19. Европейская комиссия: Программа Тасис. Брюссель, 1998.
20. Европейский союз: новый этап интеграции. М., 1996.
21. Европейский союз: Путеводитель. М., 1998.
22. Журкин В. В. Европейский Союз: Внешняя политика, безопасность, оборона. М., 1998.
23. Жўраев Н. Файзуллаев Т. Мустакил Ўзбекистон тарихи. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 3-китоб. тўлдирилган ва қайта нашр. –Т.: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2009.
24. Заболотный В.М. Новейшая история стран Европы и Северной Америки: Конец XX – начало XXI века. Учебное пособие для студентов. – М.: Издательство АСТ, 2004.
25. Западная Европа на пороге третьего тысячелетия: безопасность, политика, экономика. М., 1995.
26. Иноземцев В. Л. За пределами экономического общества. М., 1998.
27. История европейской интеграции (1945—1994). М., 1995.
28. Кальвокоресси П. Мировая политика после 1945 года. М., 2000.
29. Каменская Г.В., Родионов А. Н. Политические системы современности. М., 1994.
30. Камолова З. Ўзбекистон – Европа Иттифоқи ҳамкорлиги. «Жамият ва бошқарув» журналы. 2010 йил, 4-сон, 91-бет.
31. Капустин А. Я. Европейский союз: интеграция и право. М., 2000.
32. Керни Р. Диалоги о Европе. М., 2002.
33. Ландром Д. Тринадцать мужчин, которые изменили мир. Ростов-на-Дону, 1997.

34. Мирзаев Т. «Европа - Кавказ - Осиё транспорт йўлаги, Трасеса», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 412-413-бетлар.
35. Мирзахолов А. «Евро (Euro)», Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 405-бет.
36. Одилқориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик. Олий таълим муассасалари талабалари учун дарслик. –Т.: Ўзбекистон файласуфлари жамияти, 2009.
37. От Хельсинки до Будапешта. История СБСЕ/ОБСЕ в док. 1973—1994. В 3 т. М., 1997.
38. Пономарев М.В., Смирнова С. Ю. Новая и новейшая история стран Европы и Америки. Практическое пособие. В 3 ч. М., 2000.
39. Ражабов Қ. ва бошқалар. Жаҳон тарихининг муҳим саналари (Энг қадимги даврларда бугунги кунгача). –Т.: «Ўзбекистон», 2011.
40. Развитие интеграционных процессов в Европе и России. М., 1996.
41. Россия и основные институты безопасности в Европе: вступая в XXI век М., 2000.
42. Россия и Совет Европы: перспективы взаимодействия. М., 2001.
43. Саидкасимова Б. Магнетизм европейской интеграции // Ҳуқуқ-Право-Law. - 2004. - №2. 65-бет.
44. Синджански Д. Федеративное будущее Европы. От Европейского Сообщества до Европейского союза. М., 1998.
45. Стародубов В. П. Супердержавы XXI века: Стратегическое противоборство. М., 2001.
46. Ўзбекистон жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ қилиш йўлида. –Т.: «Akademiyа», 2005.
47. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 10-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2005, 373-бет.

48. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2001, 213-214-бетлар.
49. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2002, 410-бет.
50. http://europa.eu/about-eu/eu-history/index_en.htm
51. http://mfa.uz/rus/mej_sotr/uzb_mejd_org/uzbekistan_es/